



NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY, MASOFAVIY KONFERENSIYASI



**“INNOVATIVE PUBLICATION”- ILMIY TADQIQOTLARNI
QO’LLAB-QUVVATLASH MARKAZI**

**“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY
TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI” NOMLI № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO’PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**





**Ushbu to’plamda “NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR
ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI”
NOMLI ILMIY, AMALIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYANING 2025-yil
11 soniga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan**

**Konferensiya materiallaridan professor-o’qituvchilar, mustaqil
izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va
maktab o’qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga
qiziquvchilar foydalanishlari mumkin**

**Konferensiya to’plami Google scholar va bir qancha boshqa bazalarda
indekslanadi. Konferensiya ishtirokchilari quyidagi yo’nalishlar bo’yicha
tezislarini yuborishlari mumkin:**

- **Pedagogika fanlari**
- **Aniq fanlar**
- **Filologiya fanlari**
- **Ijtimoiy-gumanitar fanlari**
- **Tibbiyot fanlari**
- **Iqtisod fanlari**
- **Yuridik fanlari**
- **Tabiiy fanlar**

**ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO’PLAMIGA KIRITILGAN
MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA’LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELTIRILGAN
IQTIBOSLAR TO’G’RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.**

**ARALASH TOLALI TRIKOTAJ MATOSI UCHUN SIRO IPLARINI ISHLATILISHI VA TAHLILI**

Qurbonov Anvar Baxodir o'g'li, Yo'ldoshev Raufbek Olimjon o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, qanvar77@gmail.com

Annotatsiya: Ilmiy ishda halqali yigirish mashinasida Siro ipini olishda ishlatiladigan pilik zichlagichlaridagi tirqishlar orasidagi masofani 6 mm, 10 mm, 12 mm qiymatlarida olingan iplarning xossa ko'rsatkichlari o'rganildi. Olingan Siro ipi va qayta tarash iplaridan to'qilgan trikotaj matolari tahlil qilingan.

Аннотация: В научной работе были изучены показатели текстуры пряжи, полученные при измерении расстояния между щелями в фитиловых уплотнителях, используемых для получения пряжи Сиро на кольцевом прядильном станке, в значениях 6 мм, 10 мм, 12 мм. Проанализированы трикотажные ткани, сотканые из полученных нитей Сиро и нитей повторного переплетения.

Annotation: In the scientific work, we studied the yarn texture indicators obtained by measuring the distance between the slits in the wick seals used to produce Shiro yarn on a ring spinning machine, in the values of 6 mm, 10 mm, 12 mm. Knitted fabrics woven from the obtained Siro threads and re-woven threads are analyzed


Hozirgi kunda jahon bozorida to'qimachilik iplari sifati deyilganda birinchi navbatda ularning tashqi ko'rinishi va ravonligi tushiniladi, ya'ni ular ustuvor ko'rsatkichlar sanaladi. Shu maqsadda Siro ipini olishda ishlatiladigan pilik zichlagichlaridagi tirqishlar orasidagi masofani 6 mm, 10 mm, 12 mm qiymatlarida olingan iplarning xossa ko'rsatkichlari o'rganildi [1].

Siro ipining mustahkamligi tekshirilganda, iplar orasidagi masofa oshgani sayin, ipning yigirilish strukturasi yomonlashadi, ipning tuzilishi tartibsiz bo'lib, ingichka joylar soni ko'payadi. Shunga ko'ra, iplarning mustahkamligi pasayishi va uzilish paytida uzayishi kuzatiladi. 1-rasmda siro iplarining har xil zichlagichli masofalar bilan yigirilgan iplar ko'rsatilgan.

Pilik zichlagichlar orasidagi masofaning oshishi bilan yigiruv barqarorligi yomonlashadi va yigiruv uchburchagi beqaror bo'ladi. Ushbu holat iplar va iplarning uzilishi orasidagi masofani oshiradi [2]. Iplarning tukdorligi baholanganda, ishlab chiqarilgan barcha siro iplari bir xil hisoblash va pishitish ko'effitsientiga ega bo'lgan oddiy halqa iplariga qaraganda tuk va tuklarning standart og'ish qiymatlariga nisbatan ancha kam hisoblanadi. Siro iplarida, pilik zichlagichlari orasidagi masofaning oshishi bilan iplarning tukdorligida sezilarli pasayish kuzatiladi. Siro iplarida past tuklilik va oddiy



halqali usulda olingan iplarga nisbatan mustahkamlik kuchi yuqori bo’ladi.



1-rasm . Siro iplarining yigiruv uchburchagi, pilik zichlagichlar orasidagi har xil oraliqda.

Amaliy ravishda, iplar orasidagi masofani qisqartirish va siro iplarning yigiruv ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun pishitish ko'effitsientlarini aniqlash kerak. Shuning uchun pishitish ko'effitsientini biz $3,2 \leq \alpha \leq 3,8$; $3,9 \leq \alpha \leq 4,5$ oraliqdagi qiymatlardan $\alpha = 3,8$; $\alpha = 4,2$; $\alpha = 4,5$ ko'effitsientlarini tanlab oldik. Bunda buramlar soni quydagicha aniqlanadi:

$$K = \alpha \sqrt{N_e} 39,37$$

Bu yerda K-buramlar soni b/m; α -pishitish ko'effitsienti (ingliz nomeri uchun); N_e -ipning ingliz nomeri.

Siro ipini olishda ishlatilgan zichlagichlar orasidagi masofaning turli xil qiymatlarida, olingan iplarning notekislik ko'rsatkichlari quydagi 1-jadvalda bayon etilgan.

1-jadval


Iplarnig notekslik ko'rsarkichlari

№	Zichlagichlar orasidagi masofa	6 mm	10mm	12mm
1	Chiziqiy zichlik	14,5	14,5	14,6
2	Ingliz nomeri	40	40	40
3	Pishitish koefitsenti	$\alpha=3,8$	$\alpha = 4,2$	$\alpha=4,5$
4	CV %	12,91	12,3	12,8
5	Ingichka joylar /km	5	7	13,8
6	Qalin joylari /km	40	18,8	24
7	Neps /km	141,3	47,5	48,3

Tadqiqotning davomi sifatida tola xususiyatlarining siro yigirish jarayoniga ta'sirini turli xil xom ashyolardan foydalangan holda o'rganish mumkin. Bundan tashqari, siro iplarning mato xususiyatlari va to'qish ko'rsatkichlariga ta'siri siro iplari bilan



to'qilgan va trikotaj matolarni ishlab chiqarish orqali tekshirilishi mumkin. Siro iplaridan ishlab chiqarilgan matolarning ishqalanish kuchi bu iplar ikki qavatli iplarga qaraganda kam tukli bo'lganligi sababli yaxshiroqdir. Buni biz quydagi rasmda ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



2-rasm. $N_e = 40$ nomerli Siro va qayta tarash iplari (a) qayta tarash ipi, (b) Siro ipi bilan to'qilgan trikotaj matolarning ko'rinishi.

Siro iplari bilan ishlab chiqarilgan yassi trikotaj matolari qalinroq, yumshoq, va qatiqqligi kamroq. Ushbu matolarning o'ziga xos hajmi ikki qavatli iplar bilan to'qilganidan kichikroq ko'rinishda bo'ladi. Bundan tashqari, kesish osonroq, cho'zish va elastik deformatsiyasi yaxshiroqdir. Siro iplari bilan to'qilgan matolarning issiqlik o'tkazuvchanlik ko'rsatkichlari ham ikki qavatli iplar bilan to'qilgan matolardan yaxshiroqdir. Siro iplari bilan to'qilgan matolarda kamroq havo saqlanib qolishi sababli ularning issiqlik o'tkazuvchanligi yaxshiroqdir. Siro iplari bilan to'qilgan matolar yuqori issiqlik o'tkazuvchanligi tufayli tegib turganda salqinroq bo'ladi. Barcha sinov natijalari baholanganda, siro iplari bilan to'qilgan matolar, ayniqsa yoz oylari uchun, yaxshi issiqlik o'tkazuvchanligi va salqinlikni ko'proq ushlab turishi bilan yanada mustahkam va foydaliroq deb aytishimiz mumkin [3].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki Siro ip yigirish usuli 3,9 mikroneyrli va o'rtacha uzunlikdagi paxta tolasi yordamida ingichka iplarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Bugungi sharoitda bunday ingichka ipni klassik halqali usulda o'rtacha uzunlikdagi toladan ishlab chiqarish mumkin emas. Siro **iplarning tukdorligi tekshirilganda, ishlab chiqarilgan barcha siro iplarning tuklari bir xil son va pishitish koeffitsientiga ega oddiy halqa iplariga qaraganda ancha past ekanligi aniqlandi.**

ADABIYOTLAR

1. Texas International Cotton School (International Center for Textile Research and Development), 2008, "Cotton Yarns Produced by Siro Spinning", Textile Topics, October.
2. Ruzibav Nuriddin Nurali o'g'li, Isakulov Voxid To'laganovich "INVESTIGATION OF FACTORS INFLUENCING THE PROPERTIES OF SPUN SIRO STRIP", «International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology» INDIA (September 2020).
3. Ortlek HG, Kilic G, Bilgin S. Industria Textila 2011; 3, 62.



UN ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARIDA QO'LLANILADIGAN FILTR TO'QIMALARINING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI TADQIQI

Yo'ldoshev Raufbek Olimjon o'g'li, Qurbonov Anvar Baxodir o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti,
qanvar77@gmail.com, raufbekyuldoshev@gmail.com

Annotatsiya. Maqola bugungi kunda Respublikamizda faoliyat olib borayotgan un korxonalarida qo'llaniladigan yeng filtrlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib bunda asosan yeng filtrlarining havo o'tkazuvchanligi tadqiq qilingan.

Kalit So'Zlar. Yeng filtrlari, havo o'tkazuvchanlik, to'qima, noto'qima, va v,h,k.

Bugungi istiqbolli davrda har bir soha jadal ravishda rivojlanib kelmoqda bunga misol qilib aytish mumkinki Respublikamizda 2024- yilning yanvar-fevral oyida 13 276 ta yangi korxonalar va tashkilotlar tashkil etildi. Bugungi kunda «O'zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasi tizimida 100 dan ortiq korxonalar o'z faoliyatini yurutib kelmoqda. «O'zdonmahsulot» AK tarkibidagi korxonalar tomonidan 2023- yil yakuni bilan jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 252 mlrd so'mni tashkil etdi. Jumladan, 468,7 ming tonna un, 184,4 ming tonna omuxta yem ishlab chiqarildi.[1] Sanoat korxonalar va boshqa sohalarda atmosferaga yiliga 2 million tonnadan ziyod ifloslantiruvchi moddalar chiqmoqda. Ushbu ifloslantiruvchi chang va boshqa moddalarning atmosferaga chiqish miqdorini kamaytirish borasida olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Shu o'rinda ta'kitlab o'tishimiz kerakki Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 16 aprel kuni to'qimachilik sanoatiga eksport va investitsiyalar hajmini oshirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida “To'qimachilik sanoati mamlakatning barcha hududlarida keng tarqalgan va eng ko'p ish o'rinlariga ega bo'lgan sohalardan biridir. Bugungi kunda 6 mingdan ortiq korxonalar 570 ming kishini ish bilan ta'minlamoqda” deya o'z nutqlarida aytib o'tdilar.[2]

Barcha to'qimachilik mahsulotlari singari bugungi kunda maxsus filtribop to'qimalar ham ishlab chiqarilmoqda. Jahon to'qimachilik sanoatida tabiiy va sintetik tolalardan maxsus filtribop to'qimalarni ishlab chiqarish ham bugun o'z o'rnini topmoqda. Filtribop maxsus to'qimalar assortimentlari bir nechta turlarga ega bo'lib bular: shtapelli ip, uzliksiz ip va monofilament iplarga ega bo'lib turli sohalarda bo'yicha qo'llanilib kelinmoqda.

Filtribop to'qimalarning havo o'tkazuvchanligi GOCT P EH 779-2014, GOCT P EH 1822-1-2010, GOCT P 51251-99, GOCT 12088-77 standartlar asosida aniqlanadi. [3]

Amerika Sinov va Materiallar Tashkiloti (ASTM) tomonidan nashr etilgan ASTM D737-18 standartida to'qimachilik matolarining havo o'tkazuvchanligini o'lchashni o'z ichiga olgan sinov usuli belgilangan. Ushbu sinov usuli matolarning ko'p turlariga, jumladan, to'quv



matolari, to'qilmagan matolar, havo yostig'i matolari, adyol, qoziq matolar, trikotaj matolar va qatlamli matolarga tegishli. Ushbu matolar ishlov berilmagan, katta o'lchamli, qoplangan, qatronlar bilan ishlov berilgan yoki boshqa tarzda ishlov berilgan bo'lishi mumkin.[4]

Respublikamizda ishlab chiqarish sanoatidagi dolzarb muammolardan biri ishlab chiqarishda qo'llaniladigan filtrlar bo'lib, ular asosan xorijiy davlatlardan import qilib olib kelinmoqda.

Ushbu muammoni yechish maqsadida mavjud filtrlarning xususiyatlari va GOST standartlari asosida mahalliy xom ashyolardan filtrbop to'qimalarni ishlab chiqarish vazifasi qo'yildi.

Tadqiqot ishining maqsadi hozirgi kunda un korxonalarida qo'llanilayotgan noto'qima yeng filtrlarning havo o'tkazuvchanligini aniqlab Respublikamizda mavjud bo'lgan mahalliy xom ashyo iplaridan davlat standartlariga mos bo'lgan to'qima yeng filtrlarini ishlab chiqarish.


Ushbu turdagi filtr to'qimalarini ishlab chiqarish uchun bir nechta noto'qima yeng filtr namunalari olindi va “Cantex.uz” sertifikatlash laboratoriyasida namunalarning havo o'tkazuvchanligi aniqlanib tahlil qilindi. Tahlil natijalari zamonaviy usullaridan foydalanilgan. Olingan namunalarning havo o'tkazuvchanligi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

№	Namunalar	Qiymatlar
7.	I- namuna	2.51
8.	II- namuna	2.03
9.	III- namuna	4.20
10.	IV- namuna	5.29
11.	V- namuna	3.78

Turli namunalarning havo o'tkazuvchanligi

1-jadval asosida turli namunalardan olingan natijalarning havo o'tkazuvchanligining gistogrammasi ishlab chiqildi va tajriba namunalari “Cantex.uz” sinov laboratoriyasida АП-360 CM jihozi orqali aniqlan



Belgilangan havo bosimida (5 mm. suv.ust) to‘qima yuzasi (1m²) orqali vaqt birligi ichida (s) o‘tgan havo miqdori (sm³/sm³/s) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$B_{\Delta P} = \frac{V}{S\tau}$$

Bu yerda V -xavo xajmi, sm³; S -to‘qima yuzasi, sm²; t vaqt, sek.

Havo oqimi to‘qimachilik materialining teshiklari orqali o‘tadi, shuning uchun havo o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari materialning tuzilish xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, uning g‘ovakligi, teshiklar soni va hajmini belgilaydi. To‘qimaning havo o‘tkazuvchanligi to‘qimaning qalinligini ortishi bilan kamayadi. To‘qimaning havo o‘tkazuvchanligiga uning yuzasidagi g‘ovaklar soni, hajmi va ishlov berish turi, to‘qimadagi tanda va arqoq qoplanishlari soni ham ta’sir etadi.

Xulosa qilib aytganda un korxonalarida ishlatilayotgan yeng filtrlarining namunalarning havo o‘tkazuvchanligini aniqlagan holda ushbu yeng filtrlarini to‘qima shakilda ishlab chiqarish va ushbu yeng filtrlarining havo o‘tkazuvchanligini 2.51sm³/sm²s tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. "O`zdonmahsulot" AK https://www.uzdon.uz/img/stuct/72/_390/2023_yakuni.pdf
2. UzbekistanTextile expo <https://textileexpo.uz/uz/yangiliklar/toqimachilik-sanoatini-rivojlantirish-boyicha-chora-tadbirlar-muhokama-qilindi>
3. “Issiqlikbardosh filtrbop to‘qimalarning havo o‘tkazuvchanligining tadqiqi” R..M.Yangiboyev TTYSI
4. <https://www.eurolab.net/uz/testler/tekstil-testleri/astm-d737-18-tekstil-kumaslarinin-hava-gecirgenligi-icin-standart-test-yontemi/>



5. Yangiboyev, Ruziboy. "TABIY IPAKDAN TO 'QIMA ISHLAB CHIQRISH TECHNOLOGIYSINING TADQIQI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 47.47 (2024).
6. Боймуратов, Б. Х., Р. М. Янгибоев, and У. Т. Узаков. "Исследование свойств базальтовой ткани." (2021).
7. Юсупова, З. Р., М. С. Рахимбердиев, and Р. М. Янгибоев. "КОСТЮМБОП ТЎҚИМАЛАРНИ ХАВО ЎТКАЗУВЧАНЛИГИ ТАДҚИҚИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 46.46 (2024).

**PLASTİK KARTANGİZDAN PUL O'G'IRLANYAPTİMİ? ENDİ BUNİ YECHİMİ BOR.**

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti
1-bosqich talabasi Xidirov Axror Rustamovich

KIRISH

Bugungi kunda plastik kartalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ularning qulayligi hisobiga xaridlar qilish, hisob-kitoblar o'tkazish oddiy va tezkor. Biroq, texnologiyalar rivojlanishi bilan firibgarlik usullari ham murakkablashib bormoqda. Kiberjinoyatchilar fuqarolarning ishonchidan va moliyaviy savodsizligidan foydalanib, plastik kartalardagi pul mablag'larini o'g'irlashga urinmoqdalar. **O'zbekiston Respublikasida** bu kabi holatlar soni ortib borayotgani, hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarni ham jiddiy tashvishga solmoqda. Shuning uchun har bir karta egasi o'z mablag'larini himoya qilishning asosiy qoidalarini bilishi va ularga qat'iy rioya qilishi shart. Ushbu maqolada plastik kartangizni o'g'irlikdan himoya qilishning eng muhim amaliy tavsiyalari va O'zbekiston qonunchiligida belgilangan himoya choralari haqida so'z boradi.

ASOSIY QISM

Plastik kartadagi pullarni o'g'irlanishdan himoya qilishning eng ishonchli usuli – bu **xavfsizlik qoidalariga og'ishmay amal qilishdir**.

1. Maxfiy Ma'lumotlarni Hech Kimga Oshkor Qilmang

- **PIN-kod, CVC/CVV-kod va bir martalik SMS-kodlar** — bular sizning shaxsiy kalitlaringizdir. Ularni hech kimga, hatto o'zini bank yoki UzCard/Humo xodimi deb tanishtirgan shaxsga ham aytmang. **Bank xodimi sizdan hech qachon kartaning to'liq ma'lumotlarini, PIN-kodni yoki SMS orqali kelgan tasdiq kodini so'ramaydi.**
- Pul o'tkazish uchun faqat karta raqamining o'zi kifoya. Hech qachon amal qilish muddati, CVC/CVV-kod yoki egasining ismini bermang.
- Bankomat yoki to'lov terminalida PIN-kodni terishda klaviaturani qo'lingiz bilan yopib turing.

2. Xavfsiz Onlayn Xaridlar va Raqamli Himoya

- Faqat ishonchli va xavfsiz (URL manzilida [https:// turgan](https://turgan)) veb-saytlarda xarid qiling. Shubhali reklama yoki so'rovnomalar orqali o'tishdan saqlaning.
- Kartangizga **SMS-xabarnoma** xizmatini ulab qo'ying. Bu har qanday operatsiya haqida darhol xabar olish va shubhali harakatlarga tezkor javob berish imkonini beradi.
- Mobil qurilmangizga (telefon, planshet, kompyuter) doimiy ravishda yangilanib turadigan **antivirus dasturi** o'rnatilgan.

3. O'zbekiston Qonunchiligida Jinoyat Javobgarligi

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida plastik kartalardan pul o'g'irlash bilan bog'liq firibgarlik va o'g'irlik holatlari uchun jazo choralari belgilangan.

- **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi ("Firibgarlik")** axborot texnologiyalaridan yoki elektron to'lov vositasi yoxud masofaviy xizmat ko'rsatish tizimidan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadi. Bu esa jinoyat uchun yanada **katta jarima yoki og'irroq ozodlikdan mahrum qilish jazosini** belgilashga asos bo'ladi (ilgari bunday jinoyatlar uchun jazo choralari kuchaytirilgan).



- **Jinoyat kodeksining 169-moddasi ("O'g'rilik")** axborot tizimiga ruxsatsiz kirib yoki elektron to'lov vositasi yoxud masofaviy xizmat ko'rsatish tizimidan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, xuddi shunday og'irlashtiruvchi holat sifatida ko'riladi va jazo chorasi kuchaytiriladi.

Diqqat qiling! Agar kartangizdan pul yechib olinganini sezsangiz, darhol bankka va Ichki ishlar organlariga (masalan, kiberjinoyatlarga qarshi kurash bo'limiga) murojaat qiling. Tezkor harakat pulingizni qaytarish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa

Plastik kartadan pul o'g'irlanishining oldini olishning yagona kaliti – bu doimiy ogohlik va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishdir. **Sizning ehtiyotkorligingiz va moliyaviy savodxonligingiz** – eng ishonchli himoya vositasidir. O'zbekiston qonunchiligi firibgarlar va o'g'rilarga qarshi jazo choralarini kuchaytirib, fuqarolarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga intilmoqda. Biroq, karta egasining o'zi maxfiy ma'lumotlarni saqlash va shubhali takliflarga ishonmaslik orqali o'z himoyasini kuchaytirishi shart. Har doim hushyor bo'ling va moliyaviy xavfsizlik qoidalariga amal qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 168-modda («Firibgarlik»).
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 169-modda («O'g'rilik»).

**ANORGANIK BIRIKMALARNING ENG MUHIM SINFLARI MAVZUSINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL DASTURLAR ASOSIDA O‘RGANISH**

Buxoro davlat pedagogika institute Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabasi 2-kim-24 guruh talabasi

Fazliddinova Feruzabonu Sheraliyevna

@fazliddinovaferuzabonu@gmail.com.

Annotatsiya: Mazkur maqolada anorganik birikmalarning eng muhim sinflarini o‘qitishda zamonaviy interfaol dasturlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. An’anaviy o‘qitish metodlarining kamchiliklari tahlil qilinib, PhET, ChemCollective, Quizizz kabi elektron platformalarning afzalliklari ko‘rsatib berilgan. Xususan, oksidlar, asoslar, kislotalar va tuzlarning xossalari virtual laboratoriyalar yordamida kuzatish o‘quvchilarda mavzuni tez va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Maqolada interfaol dasturlarning kimyo ta’limida o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Aorganik birikmalar, oksidlar, asoslar, kislotalar, tuzlar, interfaol dasturlar, PhET, ChemCollective, Quizizz, ta’lim texnologiyalari

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты использования современных интерактивных программ при изучении наиболее важных классов неорганических соединений. Проанализированы недостатки традиционных методов обучения и показаны преимущества таких электронных платформ, как PhET, ChemCollective, Quizizz. В частности, наблюдение свойств оксидов, оснований, кислот и солей с помощью виртуальных лабораторий позволяет учащимся быстрее и эффективнее усваивать материал. В статье приведены рекомендации по организации учебного процесса в интересной и интерактивной форме, а также отмечена роль интерактивных программ в развитии креативного и критического мышления учащихся.

Ключевые слова: неорганические соединения, оксиды, основания, кислоты, соли, интерактивные программы, PhET, ChemCollective, Quizizz, образовательные технологии

Annotation: This article explores the theoretical and practical aspects of using modern interactive programs in teaching the most important classes of inorganic compounds. The shortcomings of traditional teaching methods are analyzed, and the advantages of electronic platforms such as PhET, ChemCollective, and Quizizz are highlighted. In particular, observing the properties of oxides, bases, acids, and salts through virtual laboratories enables students to master the topic more quickly and effectively. The paper also provides recommendations for organizing the learning process in an engaging and interactive way and



emphasizes the role of interactive programs in fostering students' creative and critical thinking.

Keywords: inorganic compounds, oxides, bases, acids, salts, interactive programs, PhET, ChemCollective, Quizizz, educational technologies

Kirish. So‘nggi yillarda ta‘lim tizimida kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari va interfaol dasturlardan foydalanish keng quloch yoymoqda. Chunki anorganik birikmalar mavzusi kimyoning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda oksidlar, asoslar, kislotalar va tuzlarning xossalari, olinishi hamda qo‘llanilishi haqida fundamental tushunchalar shakllantiriladi. Mazkur mavzuning mazmuni nazariy jihatdan murakkab bo‘lgani uchun uni an‘anaviy usullar bilan o‘qitish ko‘plab cheklovlarga ega. Masalan, laboratoriya sharoitida ba‘zi kimyoviy reaksiyalarni xavfsizlik sababli to‘liq namoyish etish mumkin emas.

Shu bois, PhET Interactive Simulations (Kolorado universiteti tomonidan yaratilgan onlayn dasturiy platforma), ChemCollective (virtual laboratoriya loyihasi), Quizizz va Kahoot kabi test-simulyatsion dasturlar ta‘lim jarayoniga faol tatbiq qilinmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023–2024 o‘quv yillari davomida O‘zbekistonning 50 dan ortiq maktabida kimyo darslarida PhET simulyatsiyalaridan foydalanish tajriba tariqasida joriy qilingan va o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi 18–20 foizga yuqori bo‘lgani kuzatilgan [1]. Demak, anorganik birikmalar mavzusini o‘qitishda interfaol dasturlar bilimlarni faqat nazariy emas, balki amaliy va vizual shaklda mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat o‘quvchilarning fanga qiziqishini orttiradi, balki ularning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Asosiy qism

1. Anorganik birikmalar sinflari haqida qisqacha:

Anorganik birikmalar kimyo fanining eng muhim bo‘limi hisoblanadi. Ular to‘rt asosiy sinfga bo‘linadi: oksidlar, asoslar, kislotalar va tuzlar. Bu sinflar o‘quvchilarda moddalarning tuzilishi, kimyoviy reaksiyalar qonuniyatlari va tabiatdagi moddalar aylanishini tushunish uchun tayanch bilimlarni shakllantiradi. Masalan, oksidlar atmosfera jarayonlarida, kislotalar va asoslar biologik hamda sanoat jarayonlarida, tuzlar esa kundalik hayotimizda keng qo‘llaniladi. Shuning uchun ushbu mavzuning o‘qitilishi nafaqat nazariy bilim, balki amaliy hayotiy ko‘nikmalar ham beradi [2].

2. An‘anaviy o‘qitishning kamchiliklari

Kimyo darslarida an‘anaviy o‘qitish usullari – doska va bo‘r, oddiy laboratoriya tajribalari, kitobdagi sxematik rasmlar bilan chegaralanib qoladi. Natijada o‘quvchilar murakkab reaksiyalarni faqat nazariy tushunib, amaliy tasavvur hosil qila olmaydilar. Bundan tashqari, laboratoriya jihozlarining yetishmasligi, xavfsizlik talablarining yuqoriligi va moddiy xarajatlarning ko‘pligi o‘qituvchilar uchun qo‘shimcha muammo tug‘diradi. Shu sababli,



o'quvchilarda kimyoga bo'lgan qiziqish susayishi va mavzuni chuqur o'zlashtirmaslik holatlari kuzatiladi [3].

3. Interfaol dasturlar imkoniyatlari

Zamonaviy interfaol dasturlar kimyo ta'limida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, dars jarayonini vizual va qiziqarli shaklga keltiradi.

PhET Interactive Simulations – Kolorado universiteti tomonidan ishlab chiqilgan ushbu platforma anorganik birikmalar sinflarini o'rgatishda katta imkoniyat yaratadi. Masalan, oksidlarning suv bilan reaksiyasi, kislotalar va asoslarning neytrallanish jarayonini interaktiv grafikalar orqali kuzatish mumkin. Bu jarayonlar oddiy sinf sharoitida qiyin yoki xavfli bo'lsa, PhET yordamida xavfsiz, tushunarli va tezkor namoyish etiladi.

ChemCollective Virtual Lab – bu dastur o'quvchilarga virtual kimyo laboratoriyasida ishlash imkonini beradi. O'quvchilar tajribalar o'tkazib, natijalarni kuzatishlari, xatolardan saboq olishlari mumkin. Masalan, tuzlarning suvdagi eruvchanligini yoki kislotalar bilan asoslarning reaksiyalarini real laboratoriyadagi kabi bajarishadi, lekin hech qanday xavf tug'ilmaydi [4].

Quizizz, Kahoot va ClassPoint – bu test va viktorina dasturlari o'quvchilar bilimini mustahkamlashda samarali. O'qituvchi anorganik birikmalar sinflariga oid savollarni onlayn tarzda berib, o'quvchilarni jamoaviy musobaqa orqali faollashtirishi mumkin. Bu esa kimyo darsini nafaqat bilim olish, balki qiziqarli o'yin shakliga ham aylantiradi [5].

4. Amaliy misollar va tavsiyalar

Tajriba ko'rsatadiki, interfaol dasturlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilar mavzuni 15–20 foiz tezroq o'zlashtiradilar. Masalan, Buxoro davlat pedagogika instituti qoshidagi tajriba-sinov darslarida PhET simulyatsiyalari qo'llanilganda, o'quvchilarning oksidlar va kislotalar xossalari tushunish ko'rsatkichlari an'anaviy usuldagiga nisbatan yuqoriroq bo'lgan.

Shu bilan birga, o'qituvchilar quyidagi tavsiyalarga amal qilishi maqsadga muvofiq:

1. Har bir yangi mavzu uchun kamida bitta interfaol dastur yoki simulyatsiyadan foydalanish.
2. Laboratoriya tajribalarini avval virtual ko'rinishda, keyin imkon bo'lsa real sharoitda ko'rsatish.
3. Test va viktorinalarda o'quvchilarning faolligini oshirish uchun onlayn platformalardan muntazam foydalanish.
4. Interfaol dasturlarni an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltirish [6].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, anorganik birikmalarning eng muhim sinflarini o'qitishda zamonaviy interfaol dasturlardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Chunki bunday dasturlar murakkab kimyoviy jarayonlarni vizual va aniq ko'rinishda namoyish etadi, xavfsizlik talablarini buzmaganda laboratoriya tajribalarini



bajarishga imkon yaratadi, o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga, o‘z fikrini mustaqil bayon qilishga undaydi, kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, o‘quvchilarda fanga qiziqishni kuchaytiradi va bilimni mustahkamlashda qo‘shimcha vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli, kimyo fanini o‘qitishda PhET, ChemCollective, Quizizz, Kahoot kabi interfaol platformalardan muntazam foydalanish, ularni an’anaviy usullar bilan uyg‘unlashtirish va o‘quvchilarning bilim darajasiga moslab qo‘llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shoymardonov R.A. Kimyo o‘qitish metodikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Ergashov M.Y. Umumta’lim maktablarida kimyo darslarini samarali tashkil etish metodlari. – Buxoro: BuxDPI nashriyoti, 2021.
3. Mardonova S. Kimyo ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Samarqand: SamDU, 2022.
4. Sodiqova D., Qodirov B. Interfaol dasturlar yordamida tabiiy fanlarni o‘qitishning afzalliklari. – “Ta’lim va innovatsiya” ilmiy jurnali, №2, 2023. – B. 45–50.
5. Karimov O. Kimyo ta’limida axborot texnologiyalarining o‘rni. – Toshkent: O‘zMU, 2020.
6. Brown T.L., LeMay H.E., Bursten B.E. Chemistry: The Central Science. – 14th Edition. Pearson, 2018.

**BILMASDAN KAFIL BO`LIB QOLDINGIZ, BUNI BEKOR QILSA BULADIMI?**

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 1-kurs talabasi

Faxriddinova Shahlo

Annotatsiya:

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asoslanib, aholining bilmasdan kredit kafili bo'lib qolish holatlarini, kafillikning huquqiy ta'rifi, majburiyatlari va oqibatlarini tahlil qiladi. Muallif kafillik shartnomasining yozma shakli, solidar javobgarlik, bekor qilish usullari (masalan, muddat o'tishi, majburiyat o'zgartirilishi) va sud orqali himoya qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, kafillikning kredit tarixiga ta'siri, qarzni qaytarish huquqi va aholini ogohlantirish bo'yicha maslahatlar beriladi. Maqsad – huquqiy ongni oshirish va ko'zbo'yamachilikdan himoya qilish.

Kalit so'zlar: Kafillik, Kredit, Fuqarolik kodeksi, Solidar javobgarlik, Shartnoma bekor qilish, Huquqiy mas'uliyat, Kredit tarixi, Qarz undirish, Sud murojaati, Huquqiy ong

Bugungi kunda tadbirkorlikni rivojlantirish va davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida keng ko'lamli imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, ko'pchilik aholiga tadbirkorlikni yo'lga qo'yishlari uchun kredit olishlari uchun ham bir qancha qulayliklar yaratilmoqda.

Afsuski shuncha qulayliklar yaratilishiga qaramay, hali hanuz kredit olish bo'yicha ko'zbo'yamachiliklar sodir bo'lmoqda. Bular orasida eng ko'p uchraydigan turi esa boshqa bir insonni ogohlantirmasdan kafil qilib quyish va albatta, aholimiz orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun olib borilayotgan keng targ'ibotlarga qaramay haliham xalqimiz orasida huquqiy ongning pastligi sababli bilmasdan kafil bo'lib qolish holatlari ko'p uchramoqda. **Xo'sh, bilmasdan kafil bo'lib qoldingiz, siz javobgarlikka tortilasizmi?**

Ushbu savolga javob bermasdan oldin keling kafillik nima ekanligiga to'xtalib utamiz. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 292-moddasida: Kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi.

Kafillik shartnomasi kelgusida vujudga keladigan majburiyatni ta'minlash uchun ham tuzilishi mumkin. Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak. Yozma shaklga rioya qilmaslik kafillik shartnomasining haqiqiy bo'lmasligiga olib keladi.

Sodda qilib aytganda siz qarzdor o'z qarzini to'laguniga qadar ishonchli bir shaxs, agar qisman yoki to'liq to'lama javobgar shaxsga aylanasiz. Kafillik ko'pincha qarzdorning kredit olish bo'yicha zaif tomonlari bo'lganda belgilanadi. Masalan, fuqaro A. yaqindagina



ishga kirgan va hali barqaror daromadga ega emas yoki olayotgan daromadi kredit summasini to'lash uchun yetarli bo'lmasa va u ipoteka yoki avtomobil kreditini olmoqchi bo'lsa, bunday vaziyatda albatta kredit berayotgan bank yoki kreditor fuqaro A.dan kafil talab qiladi.

Kafillik bu shunchaki qarzdor qarzini to'lashi uchun tirik ishonchnoma emas, kafillik o'z o'rnida bir qancha majburiyatlarni yuklaydi. Fuqarolik kodeksining 293-moddasida: Qarzdor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob beradilar, basharti qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilgan bo'lmasa.

Basharti, kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan foizlar to'laydi, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlarini va qarzdor majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditor ko'pgan boshqa zararlarni to'laydi.

Agar kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, birgalashib kafil bo'lgan shaxslar kreditor oldida solidar javob beradilar, degan mazmundagi qoidalar keltirilgan, va unga binoan siz belgilangan kafillik shartnomasiga imzo chekkaningizdan so'ng, qarzdor (siz kafillik qilmoqchi bo'lgan qarz oluvchi) bilan bir qatorda kredit summasini to'lashga va to'lanishiga javobgar hisoblanasiz.

Agarda qarzdor qandaydir sabablarga ko'ra qarz summasini kreditorga to'lay olmasa, qarzni to'lashga nisbatan javobgarlik ham sizning yelkangizga yuklatiladi.

Kredit shartlari buzilganda esa kreditor muddati o'tgan qarzdorlikni undirish uchun ishni sudga oshirishga haqli. Bunday vaziyatlarda esa kafil ham qarzdor bilan birgalikda barobar javobgar bo'ladi, hattoki sud bo'yicha davlat boji xarajatlariga ham bir xil javobgar bo'ladi.

Qonunga bo'yicha har qanday shaxs kafil bo'lishi mumkin. Boshqacharoq qilib aytganda esa har qanday rasmiy daromadga ega voyaga yetgan shaxs kafil bo'lishi mumkin. Ammo amalda boshqacha, banklar kafillar masalasiga kelganda ishini juda ehtiyotkorlik bilan bajaradi va shunga mos ravishda kafilni ham juda puxta tanlab oladi. Ushbu masalada kafilning barqaror ish o'rni va rasmiy maoshi muhim.

Xo'sh bilmay kafil bo'lib qolish qanday yuz beradi?

Umumiy qilib olganda kafil bo'lishingiz uchun sizning shaxsingizni tasdiqlovchi pasportingiz yoki ID kartangiz va oylik daromadingiz to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lsa yetarli. Ushbu boshqalar tomonidan olinishi oson bo'lgan ma'lumotlar sababli ham aholimiz orasida bilmasdan kafil bo'lib qolish holatlari ko'p uchraydi. Ba'zi hollarda esa ayrim toifa vakillari kafillik majburiyatini to'liq anglamasdan vakil bo'lib qolishadi. Deylik fuqaro B. ipoteka krediti olmoqda ammo uning daromadi kredit summasini tulay oladigan darajada barqaror emas va bank fuqaro B. dan kafil talab qilmoqda. Shunda fuqaro B. o'z do'sti



fuqaro R. dan kafil bo`lishni iltimos qiladi, kafillik vazifalarini to`liq anglab yetmagan fuqaro R. o`zi bilmagan holatda shunchaki do`stining kredit olishga ko`maklashish maqsadida kafillikning huquqiy oqibatlarini bilmay kafillikni zimmasiga oladi. Ba`zi hollarda esa bir fuqaro ikkinchi bir fuqaroning kafillik uchun talab etiladigan barcha shaxsiy ma`lumotlarini o`ziga sezdirmasdan oladi va kredit olayotgan chog`ida kafil qilib ko`rsatadi. Bunday tamagirlik holatlari esa ko`pincha uzoq va yaqin qarindoshlar va o`zaro tanish insonlar o`rtasida ko`p uchraydi. Qisqa qilib aytganda esa shaxsiy ma`lumotlaringizni boshqalarga oshkor qilish orqali siz bilmasdan kafil bo`lib qolishingiz mumkin.

O`ngan ishni ortga qaytarib bo`lmaganidek, bilmasdan kafil bo`lib qolgan holatingizni ortga qaytarib bo`lmaydi ammo albatta bekor qilish mushkul bo`lsa-da, albatta mumkin.

Ko`pchilik qarzdor kreditor bilan kafillik shartnomasini tuzgach, keyinroq undan voz kechish mumkin va oson deb hisoblaydi, ammo aslida bunday emas. Yuqorida ta`kidlab o`tganidek kafillik qarzdor majburiyatlari bilan bir xildagi kafilda ham majburiyatlar keltirib chiqaradi. Qonunchilikka asosan, shartnomani bir tomonlama bekor qilish, ya`ni kafillikdan bir tomonlama kafillikdan voz kechishga yo`l qo`yilmaydi. ¹Masalan, kafil shartnoma tuzganidan keyin ishidan ayrilsa, kasal bo`lib qolsa, qarzdor (kredit olgan tanishi) bilan janjallashib qolsa ham kafillik o`z kuchida qolaveradi. Kafillik shartnomasini o`zgartirish yoki bekor qilish uchun bank bilan kelishish kerak bo`ladi, bank esa hech qachon o`z ta`minoti zarariga harakat qilmaydi. Kafillik qachonki kredit qarzi to`liq to`langanda, qarz majburiyati boshqa shaxsga o`tkazilganda yoki kafillik muddati o`tib bo`lgandan keyin tugaydi. Yana bir yo`li kafilni almashtirishni so`rab bankka murojaat qilish, agar tomonlar kelishsa kafilni boshqa shunday shaxsga almashtirish mumkin.²

Kafillik quyidagi hollarda bekor bo`ladi:

- kafillik bilan ta`minlangan asosiy majburiyatning bekor bo`lishi;
- kafillik bilan ta`minlangan asosiy majburiyat kafilning roziligisiz javobgarlikning oshishiga yoki uning uchun boshqa noqulay oqibatlarga olib keladigan tarzda o`zgartirilishi;
- basharti, kafil yangi qarzdor uchun javobgar bo`lish haqida kreditorga rozilik bermagan bo`lsa, kafillik bilan ta`minlangan asosiy majburiyat bo`yicha qarzning boshqa shaxsga o`tkazilishi;
- kreditorning qarzdor yoki kafil taklif etgan tegishli ijroni qabul qilishdan bosh tortishi;
- kafillik berilgan (yoki qonun bilan belgilangan) muddatning o`tishi, agar kreditor shu muddat ichida kafilga da`vo qo`zg`atmagan bo`lsa.
- kreditor oldidagi majburiyat to`liq bajarilganligida;

¹ <https://www.tfqm.uz/oz/news/index.php?page=post&id=296>

² <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=75017>
www.innovativepublication.uz



- majburiyat kafilning roziligisiz o'zgartirilganda (foiz stavkasi yoki kredit miqdori oshirilsa);
- kafillik shartnomasining amal qilish muddati tugaganda;
- bank kafilning roziligisiz qarzni boshqa shaxsga o'tkazganda.³

Yana shuni unutmashimiz kerakki O'zbekiston Respublikasining Fuqorolik Kodeksi 298-moddasiga binoan shartnomada ko'rsatilgan kafillik muddati o'tganidan keyin kafillik bekor bo'ladi. Agar bunday muddat belgilangan bo'lmasa, kreditor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish muddati kelgan kundan boshlab bir yil davomida kafilga da'vo qo'zg'atmagan taqdirda kafillik bekor bo'ladi. Agar asosiy majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan va belgilanishi mumkin bo'lmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilangan bo'lsa, kreditor kafillik shartnomasi tuzilgan kundan boshlab bir yil mobaynida kafilga nisbatan da'vo qo'zg'atmagan taqdirda kafillik bekor bo'ladi.

Ya'ni agarda o'zingiz bilmagan holatda kafil bo'lib qolsangiz va kreditor va qarzdor o'rtasida hech qanday muammolar yuzaga kelmasa yohud shartnomada muddat belgilanmasa, bir yildan so'ng kafillik bekor bo'ladi.

Agarda ziddiyatli yoki katta miqdordagi kredit olgan qarzdorga o'zingiz bilmagan holda kafil bo'lib qolsangiz, shartnomada aniq uzoq muddat ko'rsatilgan bo'lsa, qarzdorning kredit summasini to'lashiga ko'zingiz yetmasa, yoki siz kafillik majburiyatini olishni hohlamasangiz, bunday holatlarda o'z huquqingizni talab qilib o'z tumaningizdagi fuqarolik sudiga murojaat qilsangiz bo'ladi.

Mavzuyimiz davomida keling yana bir qancha aloqador savollarga ham javob berib o'tamiz.

Kafillik kredit tarixiga qanday ta'sir qiladi?

Kredit tarixi —bu qarz oluvchi haqida yig'ilgan ma'lumotlar to'plamidir. Unda sizning barcha kredit so'rov va to'lovlaringiz, shuningdek, qarzlaringizni kechiktirganligingiz haqidagi ma'lumotlar mavjud. Kafilning barcha majburiyatlari (summa, foiz va asosiy qarzni to'lash muddati, to'lov sanasi va miqdori va boshqalar) uning kredit tarixida aks ettiriladi. Bu shuni anglatadiki, agar kredit olish uchun ariza berish zarurati tug'ilsa, u holda kafillik majburiyatlari bank tomonidan sizning to'lov qobiliyatingizni baholashda to'liq hisobga olinadi va kerakli miqdordagi kredit olishingizga imkon bermasligi mumkin.

Agar qarz oluvchi kreditni to'lashdan bosh tortsa nima qilish kerak?

Bank oldidagi majburiyatlaringizni bajaring: siz kimga kafillik bergan bo'lsangiz shu shaxsning qarzlarini to'lang. Aks holda, oqibatlar achinarli bo'ladi. Birinchidan, kafil, xuddi qarzdor kabi, qimmatbaho mulkni yo'qotish xavfini o'z zimmasiga oladi.

Ikkinchidan, kredit tarixi buziladi va kelajakda kredit olish imkoniyati pasayadi yoki

³ ←<https://depozit.uz/news/agar-qarz-oluvchi-kreditni-qaytarmasa-kafil-nima-qilishi-kerak>
www.innovativepublication.uz



umuman yo'qoladi. Agar qarz oluvchi o'rniga bankka kreditni kafil qaytargan bo'lsa, pulni qaytarish mumkinmi?

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 295-moddasiga ko'ra, qarz oluvchining majburiyatlarini bajargan kafil aslida uning kreditori bo'lib qoladi⁴. Ya'ni kafil qarz oluvchidan pulni qaytarishni talab qilishi mumkin. Agar qarz oluvchi kafilga qarzni to'lashdan bosh tortsa, kafil sudga murojaat qilishi va o'zining barcha xarajatlarini to'liq qoplash huquqiga ega.⁵

Xulosa

So'zimni oxirlar ekanman kafil bo'lish istagi bor yaqinlarimizga bir necha huquqiy maslahatlar berib o'tmoqchiman.

1. Kafil bo'lmasdan avval shartnoma bilan yaxshilab tanishib chiqing, kafillik sizga qanday huquqiy majburiyatlar yuklayotganidan boxabar bo'ling.
2. Agarda keyinchalik o'zingiz ham kredit olishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, unda sizning to'lovga qobiliyatliklingiz bank tomonidan kafil sifatidagi majburiyatlaringizga asoslanib baholanishini unutmang.
3. Moliyaviy ahvoli barqaror bo'lmagan insonga kafil bo'lishga ko'nmang
4. Qarz oluvchiga kafillik berayotganda, kredit bo'yicha barcha hujjatlarni saqlang va kredit to'langach, bu haqda bankdan albatta ma'lumotnoma oling

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam bilmasdan kafil bo'lishdan ogoh bo'ling, o'z shaxsiy ma'lumotlaringizni hech kimga bermang va sizdan kafil bo'lishni iltimos qilishsa, masalaga huquqiy yondashing va tegishli hujjatlarni talab qiling. Hurmatli yurtdoshlar, ushbu maqolam orqali sizga nafaqat bilmasdan kafil bo'lish holatiga huquqiy yechim bermoqchiman, balki sizni ogohlikka chaqirmoqchiman.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi/295-modda

⁵ <https://scientific-jl.org/index.php/new>
www.innovativepublication.uz

**Ona tili darslarida matn bilan ishlashda kreativ savollar texnologiyasi: PIRLS
yondashuvining innovatsion imkoniyatlari**

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Magistrant: G‘ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi

Annatsiya: Mazkur tadqiqot ona tili darslarida matn bilan ishlash jarayonida kreativ savollar texnologiyasidan foydalanishning samaradorligini yoritadi. PIRLS baholash tizimining asosiy talablari — matnni tushunish, muallif niyatini talqin qilish, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish — o‘quvchilarda yuqori darajadagi o‘qish savodxonligini shakllantirishga xizmat qiladi. Kreativ savollar orqali o‘quvchilar matnga faqat javob topishga emas, balki yangicha fikr yaratishga undaladi. Ushbu yondashuv o‘quvchini matn iste‘molchisi emas, balki matn yaratuvchisiga aylantiradi: savol orqali izlanish, tasavvur, argument va xulosa paydo bo‘ladi. Natijada o‘qish — passiv jarayon emas, balki ijodiy tafakkur sahnasiga aylanadi.

Kalit so‘zlar: kreativ savollar, matn bilan ishlash, PIRLS, o‘qish savodxonligi, tanqidiy fikrlash, innovatsion metod.

Аннотация: В статье раскрываются возможности применения технологии креативных вопросов при работе с текстом на уроках родного языка. Подход PIRLS ориентирует учащихся не просто на понимание текста, но и на глубокий анализ, интерпретацию авторской позиции, формирование умения делать выводы. Креативные вопросы активизируют аналитическое и образное мышление, превращая чтение в процесс поиска новых смыслов и создания собственных идей. Такой формат работы формирует устойчивую читательскую грамотность и развивает навыки XXI века: критическое мышление, коммуникацию и креативность.

Ключевые слова: креативные вопросы, работа с текстом, PIRLS, читательская грамотность, критическое мышление, инновационная технология.

Abstract: This study examines the effectiveness of applying the Creative Questioning Technique during text-based learning activities in native language (mother tongue) lessons. In alignment with PIRLS standards, students engage not only in text comprehension but also in higher-order thinking tasks: analysis, interpretation, reflection, and reasoning. Creative questions transform reading from passive perception into an active, meaning-making process, where students generate ideas, justify opinions, and construct personal interpretations of the text. The approach enhances reading literacy and supports key 21st-century competencies: critical thinking, creativity, and problem-solving.

Keywords: creative questioning, text-based learning, PIRLS, reading literacy, critical thinking, innovative pedagogy.



Ona tili darslari — bu faqat grammatik qoida yoki tinish belgilari maydoni emas. Bu — fikrning uygʻonishi, soʻzning sayohati, bola tafakkurining ilk parvozi. Matn bilan ishlash jarayoni esa shu parvozni yoʻlga qoʻyadigan eng kuchli vosita. Ammo bugungi taʼlimga bir savol tikilib turibdi: oʻqish jarayoni oʻquvchini fikrlashga yetaklayaptimi yoki u faqat javob izlashda toʻxtab qolyaptimi?

Anʼanaviy savollar oʻquvchini koʻpincha “toʻgʻri javobni topish”ga majbur qiladi. PIRLS yondashuvi esa savolning oʻziga yangi maʼno beradi — savol javobdan ham muhimroq. Matndan keyingi “Nima boʻldi?” degan savol endi “Agar muallif boshqacha yoʻl tutganida nima boʻlardi?”ga aylanadi. Bu oʻquvchini tayyor javob emas, yangi gʻoya yaratishga undaydi.

Kreativ savollar texnologiyasi zamonaviy ona tili darslarida oʻqish savodxonligini rivojlantirishning innovatsion qurolidir. U oʻquvchini matnni oʻqishga emas, matnni his qilishga, undagi nozik maʼnolarni kashf qilishga undaydi. Matn bilan ishlash jarayonida bola muallifning ovozini eshitadi, oʻzining ovozini topadi. Shunda dars auditoriyasida jimlik emas — tafakkur jarangi eshitiladi.

PIRLS baholash mezonlari matnni tushunish, tahlil qilish, talqin qilish va xulosa chiqarishga urgʻu beradi. Kreativ savollar esa ana shu jarayonni jonlantiradi: savol oʻquvchini fikrlash sari yetaklaydi, fikrlash esa ijod sari olib boradi. Endi oʻquvchi matnni isteʼmol qilmaydi — matn yaratish jarayonining hamkoriga aylanadi.

Ona tili darslarida matn bilan ishlash jarayoniga kreativ savollar texnologiyasini joriy etish — bu oddiy metod almashtirish emas, balki fikrlashning oʻzini yangilashdir. Dars boshlanishidan avval oʻquvchilarning mavjud oʻqish savodxonligi darajasi aniqlanadi, ularning matndan maʼlumot ajratish, fikrni anglash va xulosa chiqarish imkoniyatlari sinovdan oʻtkaziladi. Keyingi jarayon esa anʼanaviy “savolga javob topish” modeli oʻrniga “oʻqish — fikrlash — yaratish” tamoyili asosida quriladi. Matn oʻqilganda oʻquvchiga tayyor formulalar emas, ochiq eshiklar beriladi: “Agar voqea davom etsa, sen uni qanday tugatarding?”, “Muallifning joyida boʻlsang, qaysi qarorni qabul qilarding?”, “Matndagi qaysi qahramonga ishonmaysan va nega?” Savol — javobdan ustun, chunki savol fikrni uygʻotadi. Oʻquvchi matnni isteʼmol qilmaydi, balki uning davomchisiga aylanadi; muallif bilan ichki suhbat quradi, matnga oʻz ovozini qoʻshadi. Dars jarayonida matn qayta talqin qilinadi, personajlarga xat yoziladi, voqealarga muqobil yakun yaratiladi. Har dars yakunida oʻquvchilar qisqa refleksiya orqali oʻz hislarini yozadilar — matnni nafaqat oʻqishadi, balki his qilishadi.

Natija shundaki, PIRLS baholash mezonlari talab qiladigan barcha komponentlar — tahlil qilish, muallif pozitsiyasini anglash, xulosa chiqarish, talqin qilish — oʻquvchi tafakkurining



ichidan o‘sib chiqadi. Kreativ savollar texnologiyasi o‘qish jarayonini passiv qabul emas, faollik, izlanish va ijodga aylantiradi. O‘quvchi javob topgani uchun emas, savol yaratgani uchun ulg‘ayadi. Darsda jimlik emas, tafakkurning jarillashi eshitiladi. Bu metodning eng katta natijasi — o‘quvchi matndan qo‘rqmaydi, uni orzu qiladi; so‘zlardan ma’no qidiradi, matndan zavq oladi. Shunday qilib, kreativ savollar texnologiyasi ona tili darslarini jonlantiradi, o‘quvchini matn yaratuvchisiga aylantiradi va o‘qish savodxonligi — kitobdagi satrlarda emas, bolaning qalbida yashashini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Drucker, K. T. PIRLS 2021 Assessment Framework. Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2021.
2. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. PIRLS 2016 International Results in Reading. TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2017.
3. OECD. PISA for Development Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2018.
4. Jalolov, J. Xorijiy til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
5. G‘ulomov, A., & Shodmonov, Q. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

**VATANGA XIZMAT - OLIY MAQSADIM**

Abdumutaliyeva Muxtasarbegim Akramjon qizi,

ToshDO'TAU O'TA 1-kurs talabasi

abdumutaliyevamuxtasarbegim@gmail.com +99893 404 9710

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekiston yoshlarining bugungi jamiyatdagi faol roli, ularning bilim, mehnat va fidoyilik orqali yurt taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi haqida. Harbiy xizmatdan tashqari, boshqa sohalarda ham ona yurti uchun ter to'kayotgan yoshlarning hayotiy qarashlari, davlat siyosatidagi e'tibor va ijtimoiy faktlar asosida masalaga keng yondashiladi.

Kalit so'zlar: Burch, maqsad, sadoqat, mutaxassis, demografik ustunlik, kelajak

Abstract. This article is about the active role of Uzbek youth in today's society, their contribution to the development of the country through knowledge, work, and dedication. The issue is approached broadly based on the life views of young people who, in addition to military service, are working hard for their homeland in other areas, as well as attention in state policy and social facts.

Keywords: Duty, purpose, loyalty, expert, demographic advantage, future

Inson hayotining ma'no va mazmuni uning jamiyat, el-yurt oldidagi burchini anglash va uni sharaf bilan ado etishida namoyon bo'ladi. Bu borada eng ulug' va yuksak burchlardan biri bu Vatanga xizmat qilishdir. Aynan shu maqsad har qanday ongli, vatanparvar fuqaroning hayotiy vazifasi va faoliyat mezoniga aylanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasi aynan shu haqida: "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston fuqarosining burchidir". Mening hayotimdagi eng muhim maqsadlarimdan biri-o'z bilimim, salohiyatim va fidoyiligim orqali Vatanimga xizmat qilishdir.

Ko'pchilik Vatanga xizmat deganda faqat harbiy xizmatni tushunadi. Albatta, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash muhim va zarur vazifalardandir. Har bir fuqaro oz kasbida, oz joyida halol mehnat qilsa, jamiyatga foyda keltirsa, bu ham Vatanga xizmatdir. O'qituvchi yosh avlodni bilimli qilib tarbiyalasa, shifokor insonlarning sog'ligini asrasa, dehqon dalada xalqni oziq-ovqat bilan ta'minlasa — bularning barchasi Vatanga sadoqat belgilaridir.

Mehnat erkinligini ta'minlash va majburiy mehnatni taqiqlash – hech kim o'z xohishiga qarshi ishga jalb qilinmaydi.

Xodim huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik - yangi shartnomalar yoki o'zgarishlar xodim uchun zararli bo'lmasligi kerak.

Mehnat huquqlari ta'minlanishi va mehnat majburiyatlari bajarilishi kafolatlanganligi – ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar qonun bilan himoya qilinadi.

Nega aynan asosiy prinsiplarga e'tibor beryapmiz degan savol tug'iladigan bo'lsa unga shunday javob bergan bo'lardik.

Har bir ishchi mehnat qilayotgan joyida hurmat qilinishi , huquqlari ta'minlanishi va eng asosiysi ish beruvchi unga nisbatan adolatli va holis bo'lishi kerak. Ish beruvchi va xodim o'rtasida munosabat “ kim kuchli o'sha haq “ tamoyiliga emas balki , ikki tarafning teng huquqliligiga asoslanishi kerak. Undan tashqari ish joylarida xodimlar uchun qulay ish sharoitlari yaratilishi , ularning hayoti va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ishlarda kamroq ishlashlari va muntazam tibbiy ko'rikdan o'tishlarini nazorat qilish ham ish beruvchining foydasiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (O'RQ-798-son, 28.10.2022-yil).

**ЛАЛМИ ЕРЛАРДА ГИДРОГЕЛ ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ БУҒДОЙНИНГ СУВ
РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ*****ИРРИГАЦИЯ ВА СУВ МУАММОЛАРИ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ***

таърих докторанти:

Аллаярова Махфуза Каюмовна

Анотация: Ушбу мақола лалми ерларда гидрогеллар қўллаш орқали буғдойнинг сув ресурсларидан самарали фойдаланиш технологияларига бағишланган. Мақолада гидрогелларнинг физик-кимёвий хусусиятлари, уларни қўллаш механизмлари ва лалми шароитларда буғдой ҳосилдорлигига таъсири илмий жиҳатдан таҳлил қилинади. Турли минтақаларда ўтказилган тажрибалар, жумладан, Ўзбекистон, Тожикистон ва Марказий Осиёда гидрогелларнинг сувни тежаш, ҳосилдорликни ошириш ва ўсимликларнинг стрессга чидамлилигини кучайтиришдаги роли фактлар ва статистик маълумотлар асосида кўрсатилган. Натижалар шуни кўрсатадики, гидрогелларни қўллаш ирригация ҳажмини 25-50% га камайтириб, буғдой ҳосилдорлигини 7-41% га ошириши мумкин. Қўшимча равишда, мақолада гидрогелларнинг глобал миқёсдаги қўлланиши, масалан, Африка, Австралия ва Покистон ҳудудларидаги мисоллар орқали сув танқислигини бартараф этишдаги самараси батафсил кўриб чиқилган. Мақола қишлоқ хўжалигининг барқарор ривожланиши учун гидрогелларнинг аҳамиятини таъкидлайди ва келажак тадқиқотлари учун тавсиялар беради, шу жумладан узок муддатли экологик таъсирни ўрганиш.

Калит сўзлар: Лалми ерлар, гидрогеллар, буғдой (*Triticum aestivum* L.), сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, ирригация тежамкорлиги, ҳосилдорлик ошириш, сув стресси, полимер суперабсорбентлар, Марказий Осиё, Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги, биоажраладиган гидрогеллар, сув сақлаш қобиляти, глобал иқлим ўзгариши, суперсорбент полимерлар (САП), эвапотранспирация, илмий тажрибалар.

Лалми ерларда гидрогелларни қўллаш орқали буғдой ҳосилдорлигини ошириш ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш масаласи замонавий агрономиянинг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Глобал иқлим ўзгариши, сув танқислиги ва қишлоқ хўжалиги ерларининг деградацияси шароитида, буғдой (*Triticum aestivum* L.) каби асосий донли экинларнинг ҳосилдорлигини сақлаб қолиш ва ошириш учун инновацион технологияларни ишлаб чиқиш зарур. Гидрогеллар бу сувни кўп миқдорда ўзига сингдириб оладиган ва уни аста-секин чиқариб турадиган гидрофил полимерлар бўлиб, улар тупроқнинг сув сақлаш қобилятини ошириш, ирригация тезлигини камайтириш ва экинларнинг сув стрессга чидамлилигини кучайтиришда муҳим рол ўйнайди. Ушбу мақолада лалми ерларда гидрогелларни қўллашнинг илмий асослари, механизмлари,



тажрибавий натижалари ва самарадорлигининг илмий таҳлили келтирилади, бу ерда аниқ фактлар ва статистик маълумотларга асосланилади. Гидрогелларнинг асосий хусусиятлари шундан иборатки, улар уч ўлчовли тузилишга эга бўлиб, сувни ўз оғирлигидан 200-1000 марта кўпроқ сингдириб олади ва уни ўсимлик илдизлари учун қулай шароитда чиқариб туради. Бу процесс осмотик босим ва кросс-боғланиш зичлигига асосланган бўлиб, полимерларнинг шишиб-қисқариш қобилияти орқали амалга оширилади. Лалми ерларда, хусусан қумли ва қумлоқ тупроқларда, гидрогеллар тупроқнинг сув сақлаш қобилиятини 35-50% га оширади, бу эса ирригация ҳажмини 30-50% га камайтириш имконини беради. Масалан, қумли тупроқларда гидрогелларнинг 0,3-0,6% (w/w) миқдорида қўлланилиши ирригация тезлигини 30% га қисқартириб, буғдой ҳосилдорлигини сақлаб қолади. Бу механизм ўсимликларнинг илдиз тизимини ривожлантиришга, тупроқнинг эвапотранспирациясини камайтиришга ва сувнинг чуқур перколяциясининг олдини олишга асосланади. Қўшимча равишда, Австралиянинг қурғоқ ҳудудларида гидрогеллар қўллаш буғдойнинг илдиз тизимини 20% га чуқурроқ ривожлантиришга олиб келган, бу эса глобал танқислик шароитида қўшимча афзаллик беради. Илмий тадқиқотларга кўра, суперсорбент полимерлар (SAP) буғдой ўсиш мавсумида эвапотранспирацияни (ET) 2,8% га камайтириб, ҳосилдорликни ошириши мумкин. Тажрибавий тадқиқотлар кўрсатишича, гидрогелларни қўллаш буғдойнинг сув ресурсларидан самарали фойдаланишининг асосий технологияларидан биридир. Мисол учун, Мисрнинг Ал-Нубария ҳудудида ўтказилган саҳро тажрибаларида (2014/2015 ва 2015/2016 йиллар қиш мавсуми) қумли тупроқда (92,3% қум, 3,1% ўт, 4,6% лой, pH 7,4) гидрогелларнинг қўлланилиши ирригация ҳажмини 2100 м³/феддан (тавсия этилган миқдор) дан 525-1575 м³/феддан га қисқартириш имконини берди. Бу ерда крахмал асосидаги суперсорбент полимер гидрогел (4 г/м² миқдорида) икки нав буғдой (Sids-12 ва Gemmeiza-11) учун қўлланилди. Натижалар кўрсатишича, 75% ирригация + гидрогел комбинациясида буғдой ҳосилдорлиги 1,548 тонна/феддан га етди, бу контроль (100% ирригация, гидрогелсиз) дан 41,1% юқори. Шу билан бирга, сувдан фойдаланиш самарадорлиги (IWUE) 25% ирригация шароитида 152,38% га ошди. Бу тажриба сплит-плот дизайнида уч марта такрорланиб, статистик жиҳатдан аҳамиятли ($p < 0,05$) натижалар берди, бу ерда гидрогел тупроқнинг сув резервуари сифатида ишлайди ва қурғоқчилик стрессни камайтиради. Бундан ташқари, Ҳиндистоннинг Индо-Ганг ҳавзасида соя-буғдой тизимида биополимер суперсорбент гидрогеллар (Р-гидрогел ва К-гидрогел) ни қўллаш буғдой ҳосилдорлигини 3-15% га оширган. Икки йиллик саҳро тажрибасида (қумлоқ тупроқ, тўлик, чекланган ва ёмғирли ирригация) Р-гидрогел буғдойнинг дона ҳосилдорлигини 4,24-5,08 Мг/га га етказди, бу контрольдан 3-15% юқори. Биомасса ҳосилдорлиги 2-6% га ошди, сув ҳосилдорлиги (WP) ва ирригация сув ҳосилдорлиги (IWP) 4,9% га юқори бўлди (2018-2019 йилларда). Гидрогел



тупроқнинг устки қатлами (0-20 см) да сув миқдорини 3-5% га оширган, илдиз ҳажми 16,4 см³ га етган ва фенологияни 2-3 кунга узайтирган. Бу натижалар гидрогелларнинг сувни сақлаш ва чиқариш паттернларини яхшилаш орқали ўсимликларнинг сув стрессга чидамлилигини кучайтиришини исботлайди. Марказий Осиёда, хусусан Тожикистоннинг марказий ҳудудларида гидрогелларни қўллаш пахта ва қишлоқ буғдой ҳосилдорлигини оширишда самарали эканлиги исботланган. Тадқиқотларда гидрогел пахта ҳосилдорлигини 0,95 т/га га ва қишлоқ буғдойни 1,2 т/га га оширган. Бу ерда гидрогел тупроқнинг гидроаккумуляция қобилиятини ошириб, сув ва ер ресурсларидан рационал фойдаланишни таъминлаган. Ирригацияли ва лалми шароитларда ўтказилган тажрибалар гидрогелнинг самарадорлигини кўрсатди, бу ерда сув танқислиги шароитида ўсимликларнинг сувдан фойдаланиш коэффициенти ошган (Pulotov et al., 2024). Ҳиндистоннинг Ҳарьяна штатида (Сонипат тумани) 24 та фермер ховлисида ўтказилган сахро тажрибасида (2017-2018 йиллар) гидрогелларни 2,5 кг/га миқдорида қўллаш буғдой ҳосилдорлигини 49,9 ц/га дан (контроль) 53,5 ц/га га оширган, бу 7,2% ёки 3,6 ц/га ўсишни таъминлаган. Ўсиш параметрлари статистик жиҳатдан аҳамиятли ($P < 0,01$) яхшиланган: ўсимлик бўйи 89,4 см дан 97,06 см га, бошиқ узунлиги 9 см дан 11,5 см га (25% ўсиш), бошиқдаги дона сони 48 тадан 55 тага (12% ўсиш), 1000 дона оғирлиги 39,3 г дан 40,8 г га (3% ўсиш). Ирригация тезлиги 4 тадан 3 тага камайган, бу ҳар гектарга 1,5 лакх литр сув тежашини таъминлаган ва қўшимча даромадни 7500 рупий/га га етказган. Гидрогелларнинг механизмларини чуқурроқ ўрганиб чиқсак, улар тупроқнинг гидрофизик хусусиятларини ўзгартиради: сув сақлаш қобилиятини 35% га оширади, вилтинг нуқтасини 10 кунга кечиктиради ва матриц потенциалини 1500 кПа га етказди. Қумли тупроқларда гидрогелларнинг 0,2-0,4% концентрациясида қўлланилиши ўсимлик учун мавжуд сув миқдорини 0,552-0,872 кг/пот дан 0,904-1,593 кг/пот га оширган. Бу эвапотранспирацияни 0,023-0,039 кг/(пот кун) дан 0,003-0,031 кг/(пот кун) га камайтирган ва ўсимликларнинг ҳаёт давомийлигини 24-104% га узайтирган. Буғдой учун гидрогеллар уруғларни қоплашда ҳам қўлланилади, бу тупроқ касалликларидан ҳимоя қилади ва сув танқислигида ўсишни қўллаб-қувватлайди.

Нано-гидрогелларнинг таъсири ҳам юқори самарали: улар буғдойнинг дона ҳосилдорлигини 33,6% га ва сомон ҳосилдорлигини 22,9% га оширган, сувдан фойдаланиш самарадорлигини яхшилаган. Ирригация даражаларини ўрганишда нано-гидрогел контрольга нисбатан ҳосилдорликни оширган ва сув ресурсларини тежашга ҳисса қўшган.

Шимол-ғарбий Гималай ҳудудида (қумлоқ тупроқ, 5 кг/га гидрогел) буғдой (HS-507 nav) учун гидрогел қўллаш ҳосилдорликни оширган, ўсимлик популяцияси, самарали ўсимлик сони ва илдиз узунлигини яхшилаган. Сув сақлаш 35-50% га ошган, шўр тупроқларда 15-25% га. Бу тадқиқотларда гидрогелларнинг биоажраладиган турлари



(селлюлоза асосидаги) тавсия этилган, чунки улар ўсимлик мавсумида парчаланadi ва атроф-муҳитга зарар етказмайди.

Гидрогелларни ўғитлар билан комбинациясида қўллаш азотдан фойдаланиш самарадорлигини 40% га оширади ва ирригация тезлигини 35-50% га камайтиради. Бу ерда гидрогел-ўғит қўшилмалари ўсимликларнинг озик моддаларини сингдиришини яхшилади ва тупроқ эрозиясини камайтиради. Қўшимча маълумот сифатида, Африка қитъасидаги тажрибаларда гидрогеллар буғдой ҳосилдорлигини 25% га ошириб, сув ресурсларини 40% га тежашга ёрдам берган, бу эса танқислик ҳудудлари учун муҳимдир (Reimov & Auezov, 2024). Илмий жиҳатдан, узоқ муддатли тадқиқотларда гидрогеллар тупроқ структурасини яхшилади, сув сақлашни оширади ва ўсимлик ўсишини қўллаб-қувватлайди (Khadem et al., 2020).

Умумий ҳолда, лалми ерларда гидрогелларни қўллаш буғдойнинг сув ресурсларидан самарали фойдаланишининг илмий асосланган технологияси бўлиб, ҳосилдорликни 7-41% га ошириш, сувни 25-50% тежаш ва ўсимликларнинг стресс чидамлилигини кучайтириш имконини беради. Келажак тадқиқотлари гидрогелларнинг узоқ муддатли таъсири ва биоажраладиган вариантларини ўрганишга йўналтирилиши керак, бу кишлоқ хўжалигининг барқарор ривожланишига ҳисса қўшади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Кулматов, К., Тураев, Ҳ., & Касимов, С. (2023). УСЕ ОФ ҲИДРОГЕЛС ИН САВИНГ ТҲЕ ВАТЕР ЛИФЕ РЕСОУРСЕ. Универсум: технические науки.
2. Пулатов, С.Й., Пулатов, Й.Э., & Матякубов, Б.С. (2024). Студий оф ҳидрогел апплисиатон ас ан инноватион ин ватер сонсерватион то инсреасе продустивитий оф ватер анд ланд ресоурсес ин Централ Тажикистан. ЭЗС Веб оф Сонференсес.
3. Реимов, Н.Б., & Аuezov, И.А. (2024). Тхе несесситий то усе ҳидрогелс ин сондитионс оф исланд ватер шортаге ин тхе арал регион. Аста Инноватионс.
4. Саксонов, У.С., & Кудратов, М.Р. (2024). Эффест оф ватер-савинг ирригатион течнологий басед он усинг ҳидрогел полимер сомпоунд он герминатион анд плант тхискнесс оф зимтер вҳеат. Академические исследования в области технических наук.
5. Салокхиддинов, А., & Ҳамидов, А. (2020). Эффест оф ҳидрогелс он моистуре стораге оф ирригатеад аутоморпҳис соилс ин Узбекистан. ИОП Сонференсе Сериес: Эартҳ анд Энвиронментал Ссиенсе.
6. Жураев, А.К., Жураев, У.А., & Саксонов, У.С. (2025). Эффестивенесс оф сост-эффестиве ирригатион течнологиес ин султиватион оф зимтер вҳеат ин салине соилс. АИП Сонференсе Просеэдингс.

**JIGAR FUNKSIYALARIGA ALKOGOLNING TA’SIRI**

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo’nalishi

24-14 guruh talabasi

Ravshanova Dilorom Jahongir qizi

E-mail .dravshanova28@gmail.com

Telefon raqami.+998999390628

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti O’qituvchisi **Mamadiyeva Zarifa**

E-mail.zarifamamadiyeva@gmail.com

dravshanova28@gmail.com

Annotatsiya.Ushbu maqolada alkogolning jigar to‘qimalariga ko‘rsatadigan ta’siri, uning metabolik jarayonlarda ishtiroki va patologik o‘zgarishlar rivojlanish mexanizmlari yoritilgan. Alkogolning asosiy parchalanish bosqichlari — alkogol dehidrogenaza (ADH), atsetaldegid dehidrogenaza (ALDH) va mikrosomal etanol oksidlovchi tizim (MEOS)ning roli ilmiy asosda tahlil qilindi. Shuningdek, alkogol ta’sirida paydo bo‘ladigan jigar kasalliklari: yog‘li gepatoz, alkogolli gepatit, fibroz va sirozning rivojlanish mexanizmlari batafsil bayon etildi. Maqolada klinik oqibatlar, metabolik buzilishlar hamda alkogolning uzoq muddatli xavflari haqida ilmiy dalillarga asoslangan holda fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar:Jigar, alkogol, atsetaldegid, MEOS, yog‘li gepatoz, alkogolli gepatit, fibroz, siroz.

Kirish .Jigar inson organizmidagi eng muhim metabolik va detoksikasiya organlaridan biri bo‘lib, turli kimyoviy moddalar, zaharlar va dori vositalarini zararsizlantirish vazifasini bajaradi. Alkogol eng ko‘p iste’mol qilinadigan toksik moddalar sirasiga kirib, asosan jigarda parchalanadi. Alkogolning muntazam yoki me’yorida ortiq iste’moli gepatotsitlarning shikastlanishiga, oksidlovchi stressning kuchayishiga va fibroz jarayonining boshlanishiga olib keladi. Natijada jigar funksiyalari izdan chiqib, alkogolli gepatoz, gepatit va siroz kabi jiddiy kasalliklar rivojlanadi.

Asosiy qism

1. Alkogolning jigarda parchalanish mexanizmi

Alkogol jigarda quyidagi fermentlar yordamida parchalanadi:

1. Alkogol dehidrogenaza (ADH)

Etanolni juda zaharli modda — atsetaldegidga aylantiradi.

2. Atsetaldegid dehidrogenaza (ALDH)

Atsetaldegidni atsetatga aylantiradi.

Atsetat esa keyin uglerod(IV) oksidi va suvga parchalanadi.

3. MEOS (CYP2E1)



Etanolni oksidlaydi va ko‘p miqdorda erkin radikallar hosil qiladi.

Bu esa oksidlovchi stressni kuchaytiradi va hujayralarni shikastlaydi.

. **Alkogolning jigariga patofiziologik ta’siri** a) **Gepatotsitlarga toksik ta’siri** .

Atsetaldegid:

hujayra membranalarini shikastlaydi,

oqsillarni denaturatsiya qiladi,

mitoxondriyalarning energiya ishlab chiqarish qobiliyatini susaytiradi,

yallig‘lanish mediatorlarini ko‘paytiradi.

Bu jarayonlar hujayralarning o‘limiga — nekroz va apoptozga olib keladi.

Yog‘li gepatoz (alkogolli steatoz)

Alkogol lipid almashinuviga bevosita ta’sir qiladi:

yog‘ kislotalari oksidlanishi sekinlashadi,

triglitsyeridlar yig‘iladi,

jigar hujayralari yog‘ bilan to‘ladi.

Bu bosqich qaytar, ammo ichkilik davom etsa, jigar yana ham shikastlanib boradi.

c) **Alkogolli gepatit**

Bu jigar parenximasida kuchli yallig‘lanishdir.

U quyidagilar bilan xarakterlanadi:

Gepatotsit nekrozi

Leikotsitar infiltratsiya

Fibroblastlar faollashuvi

Klinik alomatlari:

sariqlik, jigar og‘riqi, ko‘ngil aynishi, umumiy holsizlik.

Fibroz va siroz

Alkogol ta’sirida jigar yulduzsimon (Ito, Stellate) hujayralari faollashadi. Ular ortiqcha kollagen ishlab chiqarib, normal jigar to‘qimasini biriktiruvchi to‘qima bilan almashtiradi.

Natijada:

jigar tuzilishi buziladi,

portal gipertenziya rivojlanadi,

jigar funksiyasi keskin pasayadi.

Siroz — qaytmaydigan jarayon hisoblanadi.

Alkogolning jigar funksiyalariga ta’siri

Metabolik buzilishlar

Oqsil sintezi kamayadi → shishlar, qon ivishining buzilishi.

Lipid almashinuvi buziladi → qonda triglitsyeridlar oshadi.

Glikogen zahiralari kamayadi → gipoplikemiya kuzatiladi.

Detoksikatsiya jarayonining buzilishi



Alkogol CYP2E1 fermentini haddan tashqari faollashtirib, dori vositalarining metabolizmini buzadi.

Ayniqsa paratsetamol bilan birga iste'mol qilish jigar o'limiga olib kelishi mumkin.

Immun tizimga ta'siri

Kupfer hujayralari faoliyati pasayadi.

Jigar yallig'lanish jarayonlariga moyillashadi.

Alkogolning uzoq muddatli oqibatlari

Jigar sirozi, Gepatotsellyulyar karsinoma, Portal gipertenziya, Assit, Ovqat hazm qilish buzilishlari

Jigar yetishmovchiligi, Organizm zaharlanishi.

Xulosa

Alkogolning jigarga ta'siri murakkab, ko'p bosqichli va patofiziologik jarayonlarga boydir. U metabolik jarayonlarni buzib, yallig'lanishni kuchaytiradi, gepatotsitlarning o'limiga sabab bo'ladi va natijada fibroz hamda siroz kabi og'ir kasalliklarga olib keladi. Jarayonning dastlabki bosqichlari qaytishi mumkin, ammo siroz rivojlangach jigar to'qimasi tiklanmaydi. Shuning uchun alkogol iste'molini kamaytirish va sog'lom turmush tarziga o'tish jigar salomatligini saqlashning eng samarali yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harrison's Principles of Internal Medicine.
2. Robbins and Cotran. Pathologic Basis of Disease.
3. WHO Alcohol and Health Report, 2024.
4. Guyton & Hall. Textbook of Medical

Feruza Abduqodirovna, [27.11.2025 21:20]
dravshanova28@gmail.com

**IJODKORNING INDIVIDUAL QIRRALARI****RUZIBOYEV BOBIR**

JDPU mustaqil tadqiqotchisi (PhD), Bulung‘ur tuman MMTB ga qarashli 69-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

boburroziboyev07@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi zamon o‘zbek hikoyachiligida ma’naviy-axloqiy masalalarni ochib berishda ijodkorning individual qirralari muhim ekanligi mazkur maqola orqali bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: uslub, individuallik, pul, boyluk, obraz.

Аннотация: В статье показана важность индивидуальных черт творца в раскрытии духовно-нравственных проблем в современном узбекском сказительстве.

Ключевые слова: стиль, индивидуальность, деньги, богатство, образ.

Abstract: This article demonstrates the importance of the individual aspects of the creator in revealing spiritual and moral issues in contemporary Uzbek storytelling.

Keywords: style, individuality, money, wealth, image.

Kirish.

Hozirgi zamon hikoyalarida qahramonlar xatti-harakati va ular xarakterini ochib berishda yozuvchi predmet yoki psixologik detallardan unumli foydalana olganligi uning o‘ziga xos uslubini ham ko‘rsatgan. “Uslub badiiy asarning umumiy kaloriti, toni, obrazlar sistemasi, san’atkorning obraz yaratish metodi, badiiy tasvir vositalaridagi o‘ziga xos yaxlitlik, san’at asari shaklida namoyon bo‘ladigan badiiy-g‘oyaviy xususiyatlar birligi, ya’ni san’atkorning dunyoqarashi ifodasi, asardagi asosiy fikr, yetakchi g‘oyaga xizmat qiladigan sujet, xarakterlar, tasvir vositalari doirasi, tili va boshqalardagi umumiylik, yaxlitlikdir, ma’no tarzidir”. Ya’ni ijodkorning individual qirralarni asarlari orqali namoyon etishi uning o‘ziga xosligini anglatadi.

To‘lqin Hayitga xos xususiyat uning “Boyvachchanning qizi” asarida ham ko‘zga tashlanadi. Ushbu asarda yozuvchi ertaksimon g‘oyani ilgari surgan bo‘lsa-da, bugungi kundagi jamiyatda paydo bo‘layotgan tabaqalashish va uning inson ma’naviyatiga ta’siri masalasi yoritilayotganidan hikoyaning ijtimoiy hayotning dolzarb mavzularidan birida ekanligini anglash mumkin.

Hikoyaning bosh qahramoni Oroma ismli qiz bo‘lib, uning yaxshi tarbiya topganligi onasining unga qilgan vasiyatlariga amal qilish uchun farovon turmush tarzidan voz kechishga o‘zida kuch topa bilganligida ko‘rinadi.

Hikoyaning syujet unsurlari ketma-ketligi an’anaviy tarzda joylashtirilgan. Xususan, asardagi tugun – Oromaning Azamat degan yigit bilan uchrashuvga chiqqan chog‘ida o‘zining otasi kim ekanligini aytgan chog‘i deyish mumkin. Chunki uning otasi



Azimboyvachcha ismli juda boy odam bo'lib, faqat ular bilan anchagacha aloqasi bo'lmaganligidan qiz otasidan hech qanday yordam olmay yashayotgan edilar. Oromaning o'z kursdoshlari oldida puli yo'qligidan mulzam bo'lishi hikoyada quyidagicha tasvirlangan:

“Auditoriyaga kirganida, egnida tor va kalta yubka kiygan Parizod uning oddiy, yupungina qirmizi ko'ylagiga nazar tashlab, labini burdi:

- Fu-u, kiyimini?!

Nozik, uzun barmoqlaridagi qator tillo uzuklarini ko'z-ko'z qilayotgan dugonasi:

- Tezroq so'rasang-chi? Boradimi yo'qmi? – dedi qonsiz yuzini bujmaytirib.

- Parizod unga teskari o'girildi:

- Nima qilamiz uni sudrab?! Baribir bormaydi. Na puli bor, na xohishi. Ana, afti aytib turibdi.

Oroma to'lg'andi, Oroma yondi. Bu gaplar tig' misoli yuragini tirnayotgan bo'lsa-da, tishini-tishiga qo'yib, ulardan nari ketdi va joyiga borib o'tirdi”.

Ko'rinadiki, Oroma shunday og'ir damlarda ham otasi beradigan pullarni olmagan va hayotning og'ir sinovlariga bardoshi yetgan oqila qiz obrazi sifatida namoyon bo'lgan. Uning kursdosh qizlarinig boylik orqasidan unga bepisandlarcha munosabatda bo'lishlari, o'zlariga teng ko'rmasliklari bu qizlarning ma'naviyatdan yiroq ekanligini ko'rsatadi.

Oromaning og'ir ahvolda ham otasidan pul olmasligiga asosiy sabab, onasining otasi topgan pullardan hazar qilishni o'rgatganligida ko'rinadi: “Hech narsasini olma, yuqmaydi. O'zing o'qib, ishlab topganing yaxshi, qizim!”. Onaning vasiyati qizi tomonidan otasining o'limidan keyin ham bajarilishda davom ettiriladi.

Asarda yozuvchi tomonidan ayrim kachiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Ya'ni Oromaning otasining kasal holatda o'z uyining bir hujrasida qarovsiz qoldirilishi, undan sassiq hid kelishi kabi holatlar ifodasidagi sun'iylik shular jumlasidan. Yana bir sun'iylik qizning otasiga u o'qishdan kelgunicha rasm chizib o'tirishi uchun qog'oz va qalam berishida ko'rinadi. Umuman olganda, hikoyada juda qudratli deb ta'rif berilayotgan yetakchi qahramonlardan birining shunchalik ojiz etib tasvirlanishi asardagi hayotiy haqiqat va badiiy tasvirning nomutanosibliigi deya baholanishga asos bo'ladi.

“Boyvachchaning qizi” hikoyasidagi Azimboyvachchaning 7-8 betlik maktubining uzundan-uzoq hajmi ham kitobxonda uning og'ir betob ekanligiga ishonchini yo'qotadi. Shuningdek, ushbu maktubdagi ko'p o'rinlar yozuvchi tomonidan hikoyada muallif nutqi orqali aks ettirilganligini hisobga olsak, hikoyada qaytariqlar ham mavjudligi kitobxonni bir qadar zerikishiga olib kelishiga xizmat qilishi mumkin. Azimboyning qizini o'z uyiga olib ketishni xohlaganida unga qo'l ko'tarmoqchi bo'lishi holati ham shunday ishonchsizlik tug'diradi.

Xulosa.

Istiqlol yillarida yozilgan hikoyalarning ko'pchiligi inson botini, ya'ni uning ma'naviy olami tavsifiga alohida urg'u berib yaratilgan asarlardir. Hikoya janrining xossalari inobatga



olinsa, bu davr hikoyalari orasida inson tiynatini, uning hayot zarbalariga munosabatini aks ettiruvchi hikoyalar anchagina. Shular orasida To‘lqin Hayitning “Boyvachchaning qizi” nomli melodrama tipidagi hikoyalari yaratilganligi fikrimiz dalolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Q.Yo‘ldosh. O‘zbek nasri ufqlari. («Yoniq so‘z» kitobi). – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B.35.
2. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – B.153.
3. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish – T.: O‘AJBNT. 2008 – B.332.
4. Abbas Said. Qariya. – T.: Sharq, 2006. – B.350.
5. Latif Mahmudov. Sevgi desam. – T.: O‘qituvchi, 2005. – B.17.
6. Abdug‘afur Rasulov. Akslar falsafasi. (so‘ngso‘z)/ Isajon Sulton.Ozod. – T.: Sharq, 2012. – B. 425.
7. Ahmad A‘zam. Soyasini yo‘qotgan odam. – T.: Sharq, 2004. – B.76
8. Ziyouz.com



OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA ELEKTROTEXNIKA VA ELEKTRONIKA ASOSLARINI O'QITISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Pazilova Shoxida Abdulbasitovna

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim didaktika qonunlarining asosiy tamoyillari bayon etilgan. Shuningdek, Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o'zining “Buyuk didaktika” asarida ta'lim berishning usul, shakl va tamoyillarini ishlab chiqqanligi haqida to'xtalib o'tilgan. Didaktikaning asosiy muammolari: o'quv jarayonlarining qonuniyatlarini ochish, ta'lim mazmunini aniqlash, o'qitishning eng samarali usul yo'llarini ishlab chiqish ekanligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: didaktika, intellektual, qobiliyat, ta'lim, muammo, yechim, dastur, mutaxassis.

Jamiyatning barqaror rivojlanishi va istiqboli ta'lim tizimining ijodiy taraqqiyoti va zamonaviy talablarga moslashish darajasi bilan bevosita bog'liq. Bugungi kunda **uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, uni yangi sifat bosqichiga olib chiqish, ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya vositalarini ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.** Ushbu yo'nalishlar qator **me'yoriy-huquqiy hujjatlar** hamda **rivojlanish dasturlarida o'z aksini topgan.**

Ofitser kadrlariga qo'yiladigan talablar oshib bormoqda. Chunki hozirgi ofitser faqat ma'lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo'lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual qobiliyatga ega bo'lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. Buning uchun armiya safidagi harbiy xizmatchilar o'z sohasining ustasi, harbiy texnikalarni puxta egallagan, yuksak aql-zakovatli mutaxassislardan bo'lishi talab qilinadi.

Oliy harbiy ta'limning xususiyati shundaki, u kursantlarni harbiy mutaxassislik bo'yicha tayyorlaydi. Yosh mutaxassis oliy harbiy ta'lim muassasasida o'qishni tugatgandan so'ng, tez orada o'z mutaxassisligi bo'yicha amaliy ishni boshlashi uchun shu vaziyatdagi texnologik holatdan va ish o'rniga ega bo'lish imkoniyatidan xabardor bo'lishi kerak. Bu juda murakkab vazifa. Demak, kursantlarni shunday o'qitish kerakki, bitiruvchi mustaqil ravishda tez orada kelajakdagi kasbiy faoliyatiga moslasha olsin. Mana shularni e'tiborga olsak, O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasasida o'qitiladigan elektrotexnika va elektronika asoslri fani mazmunini va o'qitish metodikasini zamonaviy talablardan kelib chiqib tahlil qilib chiqish va takomillashtirish zarurligi dolzarb masala ekanligi yaqqol



namoyon bo'ladi.

Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilgan ilk kundan harbiy kadrlarni tayyorlash, oliy harbiy bilim yurtlarining o'quv-moddiy bazasi va ta'minotini yaxshilash, zamon talablariga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish masalasi dolzarblik kasb etdi.

Hozirda tez sura'tlar bilan rivojlanib borayotgan fan-texnika shu bilan birga, tabiiy-ilmiy fanlarni mukammal egallash dolzarb bo'lib qolmoqda. Xususan, harbiy texnikani boshqarish kabi harbiy sohaning muhim yo'nalishlarini egallash uchun ofitserlarning tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha bilimlarini kengaytirish va bu bilan ularning mazkur fanlar bo'yicha mushohadalari, ilmiy-ijodiy fikrlashlari, muhandislik qobiliyatlari, muhim harbiy qarorlarni qabul qilishda eng optimal variantlarni tanlash ko'nikmalariga ega bo'lishi muhimdir.

Jahonda “Oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish”, ta'lim-tarbiya jarayonlarini zamonaviy: texnologik, tizimli, faoliyatli, kompetentsiyaviy, innovasion yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish vazifalarini belgilab berdi.

Bugungi kunda ta'limda innovatsion va axborot texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida o'qitishning samarali usullari ko'plab qo'llanilmoqda. O'qitiladigan fanlarning mazmuni har doim sifat jihatdan yaxshilanib borgan. Respublikamiz va hamdo'stlik mamlakatlarida ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida qator izlanishlar olib borilmoqda.

Ta'limga zamonaviy fan yutuqlarini integratsiyalab o'qitish masalalari yanada dolzarblikni kasb etmoqda. Tabiiy-ilmiy bilimlar faqatgina tabiat hodisalarining sabablarini va ular orasidagi bog'lanishni ochib beribgina emas, balki boshqa tabiiy va kasbiy fanlar orasidagi bog'lanishni ham yaqqol namoyon qilishda asosiy rolni o'ynashi lozim. O'z yo'lida to'g'ri o'rnatilgan bog'lanish bir fanni ikkinchisi bilan to'ldirib boradi va ularning bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lishini ta'minlaydi. Agarda fanlararo bog'lanish o'zaro to'liq bo'lmasa, xususan, bo'lajak ofitserning egallagan bilimlari amaliyotda, ya'ni mummoli vaziyat bilan to'qnash kelganda u ojiz bo'lib qoladi, agarda bog'lanish yetarli darajada bo'lsa, olamning moddiyligi, hodisalarining birligi, ularning bir-biridan ajralmasligi bilim oluvchi ongida faol shakllangan bo'ladi.

Oliy harbiy ta'limda olib borilayotgan islohotlar zamirida zamonaviy talablarga mos yetuk, vatanparvar, bilimli hamda yuqori malakali ofitserlarni tayyorlash maqsad qilib qo'yilgan.



Oliy harbiy ta’limda zarur innovatsion islohotlar amalga oshirilishi, o’qitish jarayonini takomillashtirish yo’lidagi izlanishlar elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o’qitishni yuqori darajaga olib chiqishi va jahon standartlariga mos keladigan harbiy mutaxassis kadrlarni tayyorlash davr talabi ekani ilmiy izlanishlarning mohiyatida aks etishi lozim. O’qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish, kursantlarning olgan nazariy bilimlarini amaliyotga uzviy bog’lash va yetuk harbiy mutaxassislarni tayyorlash oliy harbiy ta’lim muassasalarining asosiy maqsadi va vazifalari hisoblanadi.

Yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalari professor o’qituvchilari tomonidan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Shu sababli bu sohada yaratilgan adabiyotlar va olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini qisqacha tahlil qilib o’tamiz.

Oliy ta’lim didaktika qonunlarining asosiy tamoyillariga asoslanadi. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o’zining “Buyuk didaktika” asarida ta’lim berishning usul, shakl va tamoyillarini ishlab chiqdi. Didaktikaning asosiy muammolari: o’quv jarayonlarining qonuniyatlarini ochish, ta’lim mazmunini aniqlash, o’qitishning eng samarali usul yo’llarini ishlab chiqishdir.

Har qanday fan kabi elektrotexnika va elektronika asoslari o’zining xususiyatlaridan kelib chiqib, o’qitish metodikasi va tashkiliy shakllariga ega. Ushbu masalalar xususiy didaktikalar yoki alohida fanlarni o’qitish usullari bilan ko’rib chiqiladi. Bilish aniq hodisa va jarayonlarni idrok etishdan boshlanadi. Materialni hissiy idrok etish qanchalik turlicha bo’lsa, o’zlashtirish shunchalik mustahkam bo’ladi. Bu qonuniyat didaktikaning *ko’rgazmalilik* tamoyilida o’z aksini topdi. Elektrotexnika va elektronika asoslarida ko’rgazmalilik tamoyili tajriba va namoyishlarda ifodalanadi. Fanni o’qitishda tajriba metodi keng qo’llaniladi. Ma’ruza mashg’ulotlarida tajriba namoyishi ma’ruza sifatini oshiruvchi omil sifatida muhim o’ringa ega.

Oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonida *ilmiylik* tamoyili muhim ahamiyatga ega. Ilmiylik darajasi - fanning rivojlanishi va ta’lim darajasiga bog’liq bo’lib, hozirgi zamon fanida uzil-kesil aniqlangan qoidalarni o’zlashtirish, faqat ayni fan-texnikada qabul qilingan atamalardan foydalanish, fan-texnikaning turli sohalarida erishilgan eng yangi yutuqlarni o’rganish kabilarni o’z ichiga oladi. Ilmiylik darajasi asosan, o’quv dasturlari va o’quv qo’llanmalari ishlanayotganda qo’llaniladi. Tayyorlanayotgan mutaxassislar olgan bilimlarini amalda qo’llay olishlari bugungi kunda yetarli bo’lmay qoldi. Hozir oliy harbiy ta’limda o’quv jarayoni faqat ilmiy bilimlarni berib qolish uchungina xizmat qilmay, balki, kursantlarni ilmiy ishga va ijodiy mehnatga tayyorlashi kerak. Afsuski, elektrotexnikaga oid darslik va o’quv qo’llanmalarning aksariyat qismi ilmiy qarashlarni shakllantirish talabiga javob bermaydi.

Faollik tamoyiliga asoslanib, o’quv materialining ilmiy va nazariy murakkabligi aniqlanadi. Ta’lim o’quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligi tarbiyalaydigan tarzda olib borilishi kerak. Bu sifatlar mashg’ulotlardan ko’zda tutilgan maqsad va vazifalarni to’g’ri ifodalab



olinishi, o‘quv materialining ongli o‘zlashtirilishi, nazariy va ishlab chiqarish ta’limning uzviy bog‘liqlikda borishi, o‘qitishda samarali usullardan foydalanish natijasida vujudga keladi.

Ta’limda didaktikaning ilmiylik tamoyili *tizimlilik* tamoyili bilan o‘zaro aloqador. Tizimlilik tamoyilini ta’minlashda o‘qituvchi tomonidan tuzilgan dastur katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu dastur mavzularni o‘rganish ketma-ketligi, mavzularga ajratilgan soatlar hajmidan tashqari, fanlararo aloqa bilan ma’ruza, laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlar orasidagi aloqani hisobga oladi.

Nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili asosiy tamoyil bo‘lish bilan birga, ta’limning asosiy qonuni deb ham hisoblanadi. U oliy ta’limda tizimlilik, maqsadga yo‘naltirilganlik xususiyatlariga ega bo‘lib, ta’lim kursining barcha mavzu va boblarida o‘z aksini topadi. Elektrotexnika va elektronika amaliy fan sifatida o‘zining maqsadi va mazmuniga ko‘ra amaliy yo‘nalishiga ega. O‘quv jarayoni har doim ham nazariyani amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyiliga rioya qila olmaydi. Shu kamchilikni yengib o‘tishda muammoli ta’lim samarali vosita hisoblanib, u bilim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu tamoyil o‘quvchilarning o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishini, shuningdek, ular dunëqarashning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ta’lim va tarbiya birligi tamoyili unumli mehnat, ya’ni ijtimoiy foydali buyumlar yaratish asosida ishlab chiqarish ta’limi berishni ko‘zda tutadi. Bunday mehnat va texnologik jihatdan yaxshi ta’minlanganligi, chuqurroq bilim talab etishi, o‘quvchilarning moddiy manfaatdor bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishda o‘qituvchi doimo pedagogik mahoratni oshirib, uni san’at darajasiga yetkazib borish kerak. O‘z fikrini tushunarli, ko‘rgazmali ifodalashi, fan yangiliklarini hayotiy voqealarga bog‘lanishini va munosabatini bilishi, ta’lim berishga ijodiy yondashuvni rivojlantirib borishi kerak.

Adabiyotlar

1. В.Н., Филимонова О.В. Методика преподавания электротехнических дисциплин. Учебное пособие. – Самара: СМГТУ, 2009.- 140 с.[стр.19]
2. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2021-yil 4-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligida harbiy ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tog‘risidagi 333-sonli buyrug‘i.
3. Курбонов М. Узлуксиз таълимда физик экспериментларнинг дидактик функциялари самарадорлигини ошириш (Олий таълим мисолида). Пед.фан.док.дисс. – Т.: 2012, -255 б.
4. Пазилова Ш.А. Электротехника ва электроника асосларидан машғулотларни ташкил этишнинг бугунги ҳолати // Педагогика ва психологияда инновациялар. – Тошкент, 2019. № 9 - Б. 22-25.



Стилистическая теория М.В. Ломоносова. "теория трех стилей" и развитие классицизма. Формирование системы функциональных разновидностей литературного языка.

Термезский государственный педагогический институт, факультет языков, 4 курс,
группа 401

Махамудинова Фарангиз

Email: maxamadinovafarangiz@gmail.com

Буранова Муниса

Email: usarburonov403@gmail.com

Туралиева Азиза

Email: azizatoraliyeva@gmail.com

Аннотация .статье рассматривается стилистическая теория М.В. Ломоносова, известная как «теория трёх стилей», её роль в становлении русского классицизма и влияние на формирование функциональных разновидностей литературного языка. Особое внимание уделяется историческим условиям возникновения теории, характеристике высокого, среднего и низкого стилей, а также их значению для развития литературной нормы XVIII века. Показано, что идеи Ломоносова стали фундаментом современной системы функциональных стилей русского языка.

Ключевые слова Ломоносов, теория трёх стилей, классицизм, литературный язык, функциональные стили, высокий стиль, средний стиль, низкий стиль, языковая норма.

Введение. XVIII век стал периодом формирования русской литературной нормы и активного развития отечественной культуры. В этот период происходил переход от средневековой книжной традиции к новой, светской литературе. Необходимость создания единого, систематизированного литературного языка привела к появлению научных концепций, направленных на упорядочение правил и норм. Одной из наиболее значимых стала стилистическая теория М.В. Ломоносова, сыгравшая ключевую роль в становлении русского классицизма и последующей дифференциации функциональных стилей русского языка.

Основная часть 1. Исторические предпосылки возникновения теории М.В. Ломоносова

До деятельности Ломоносова в русской письменной практике отсутствовала строгая нормативность. Церковнославянский язык, употреблявшийся в религиозной сфере,



смешивался с бытовыми элементами живой речи. Литература развивалась неравномерно, наблюдался разнородный языковой состав, что требовало реформирования. Научная деятельность Ломоносова стала ответом на необходимость создания структурированной системы литературного языка.

2. Содержание «теории трёх стилей»

Система Ломоносова разделила русский литературный язык на три основных стиля, каждый из которых имел своё назначение и языковые нормы.

Высокий стиль

Предназначался для жанров, выражающих важные, торжественные и героические темы: оды, религиозные произведения, патриотические речи. Для высокого стиля характерны:

активное использование церковнославянизмов,
сложные синтаксические конструкции,
возвышенная, торжественная лексика,
строгие нормы.

. Средний стиль

Использовался в нейтральных по тону жанрах: дружеских посланиях, научно-популярных сочинениях, драматургии. Основные черты:

сочетание разговорных и книжных элементов,
умеренная эмоциональность,
доступность для широкого круга читателей.

. Низкий стиль

Применялся в бытовых, комедийных и непринуждённых жанрах: комедиях, сатире, личной переписке. Признаки:

разговорная лексика,
простые синтаксические модели,
отсутствие высоких книжных элементов,

Теория Ломоносова и развитие русского классицизма

Классицизм как направление требовал строгой жанровой иерархии. Концепция Ломоносова обеспечила теоретическое обоснование этого принципа, распределив языковые средства в соответствии с жанровыми задачами. «Теория трёх стилей» стала основой жанровой системы русской классической литературы XVIII века. Благодаря этому русская литература получила единую стилистическую структуру, что способствовало её дальнейшему развитию.

Влияние теории на формирование функциональных стилей русского языка

Хотя современные функциональные стили (официально-деловой, научный, разговорный, публицистический, художественный) окончательно сформировались позже, истоки их дифференциации уходят к идеям Ломоносова.



Он заложил несколько ключевых принципов:

зависимость языковой формы от сферы употребления;

необходимость строгой регламентации литературной нормы;

сочетание национального (русского) и книжного (церковнославянского) языковых ресурсов;

системность в делении языковых средств.

Таким образом, теория Ломоносова стала основой для дальнейшей научной стилистики и формирования функциональных разновидностей современного русского языка

Заключение

Стилистическая теория М.В. Ломоносова является важнейшим этапом в развитии русской литературной нормы. Его «теория трёх стилей» определила структуру языка XVIII века, способствовала укреплению традиций классицизма и положила начало формированию функциональных стилей русского языка. Идеи Ломоносова оказали огромное влияние на развитие литературного языка, установление его норм и формирование научного подхода к изучению стилистики. Значение его трудов сохраняет актуальность и в современном языкознании.

Использованные источники

1. Ломоносов М.В. Российская грамматика. — СПб., 1755.
2. Ломоносов М.В. Предисловие о пользе книг церковных в российском языке. — СПб., 1758.
3. Виноградов В.В. История русского литературного языка. — М.: Наука, 1978.
4. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. — М.: Просвещение, 1993.
5. Брандес М.Е. Русский язык XVIII века: синтез традиций и реформ. — СПб., 2001.
6. Успенский Б.А. История русской литературной нормы. — М., 1994.

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING EMISSIYA FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

Dilnozaxon Muxitdinova

*“Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar” kafedrası, Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti, Toshkent, O'zbekiston,
dilnozakhnmukhitdinova@gmail.com*

Aksiyadorlik jamiyatlari moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, ularning emissiya faoliyati korporativ sektor uchun investitsiya manbalarini kengaytiradi. Emissiya orqali jamiyatlar o'z kapitalini oshirib, yangi loyihalar va texnologiyalarni moliyalashtirish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, emissiya jarayoni iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslarning taqsimlanishida, kapital bozorining chuqurligi va likvidligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Biroq, emissiya faoliyatining samaradorligi har bir mamlakatda mavjud iqtisodiy siyosat, qonunchilik, korporativ boshqaruv sifati va investor ishonchi bilan chambarchas bog'liq.

Aksiyadorlik jamiyatlari emissiyasini rivojlantirish masalasini iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan birinchi marta chuqur tahlil qilganlar orasida **Franco Modigliani va Merton Miller** (1958) alohida o'rin tutadi. Ularning **“Capital Structure Irrelevance Theory”** (Kapital tuzilmasining befarqlik nazariyasi) kompaniya qiymati qarz va aksiyalar ulushi o'zgarsa ham o'zgarmasligini ilgari suradi. Ularning fikricha, mukammal bozor sharoitida emissiya qarorlariga soliqlar, agentlik xarajatlari va axborot assimetriyasi ta'sir qilmaguncha kapital qiymatida o'zgarish bo'lmaydi.

Eugene Fama (1970) tomonidan ilgari surilgan **bozor samaradorligi gipotezasi** esa, aksiyalar narxlari barcha mavjud axborotni o'zida aks ettiradi, degan g'oyaga asoslanadi. Bu emissiya faoliyatida axborot oshkoraligining muhimligini ko'rsatadi.

Stewart Myers va **Nicolas Majluf** (1984) esa **“pecking order theory”** orqali kompaniyalar moliyalashtirishda ichki resurslarga tayanish, keyin qarz, oxirida esa yangi aksiyalar emissiyasini tanlashini asoslagan. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, aksiyalar emissiyasi faqat boshqa moliyaviy manbalar cheklangan holatda afzal bo'ladi.

Michael Jensen (1986) tomonidan ilgari surilgan **agentlik nazariyasi** doirasida emissiya va kapital tuzilmasining boshqaruv qarorlariga ta'siri o'rganilgan. Jensen



kompaniya rahbariyatining erkin naqd pul oqimlarini nazorat ostiga olish emissiya siyosati orqali mumkinligini ta’kidlagan.

Joseph Stiglitz va **Andrew Weiss** (1981) esa axborot assimetriyasi muammosi tufayli bozor ishtirokchilari o’rtasida riskning nomutanosib taqsimlanishini tahlil qilgan.

Raghuram Rajan va **Luigi Zingales** (1998) o’z tadqiqotlarida kapital tuzilmasining mamlakatdagi moliya tizimi va huquqiy muhitga bog’liqligini ko’rsatganlar. Ularning fikricha, korporativ moliyalashtirish tizimi rivojlangan davlatlarda emissiya faoliyati ko’proq bo’ladi, chunki u yerda investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinadi.

Pascal Paetz (2022) esa makroiqtisodiy barqarorlik va kapital bozor chuqurligi o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganib, aksiyadorlik jamiyatlari emissiyasining mamlakat iqtisodiy o’sishiga bevosita ta’sirini aniqlagan.

Moliyaviy iqtisodiyot nazariyasida aksiyadorlik jamiyatlarining emissiya faoliyati dastlab kapital strukturasi shakllantirish vositasi sifatida qaralgan bo’lsa, zamonaviy ilmiy qarashlarda u iqtisodiyotning institutsional taraqqiyoti ko’rsatkichi sifatida baholanmoqda

1-jadval

Emissiya faoliyatining metodologik asoslari bo’yicha qiyosiy jadval (nazariy yondashuvlar kesimida)

Nazariy yondashuv	Asosiy mualliflar	Emissiyaga munosabat	Metodologik mazmun	Kuchli jihat	Cheklov
Kapital tuzilmasi befarqligi	Modigliani & Miller	Emissiya kompaniya qiymatiga ta’sir qilmaydi	Mukammal bozor modeli	Nazariy aniqlik	Amaliyotda bozor mukammal emas
Pecking order theory	Myers & Majluf	Avval ichki resurs, keyin qarz, oxirida emissiya	Axborot assimetriyasi modeli	Kapital tanlashni tushuntiradi	Bozorda doim amal qilmaydi
Bozor samaradorligi	Eugene Fama	Emissiya narxi bozor tomonidan baholanadi	Informatsion samaradorlik	Narx signallari yuqori	Kam rivojlangan bozorlarda

**“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI”**

Nazariy yondashuv	Asosiy mualliflar	Emissiyaga munosabat	Metodologik mazmun	Kuchli jihat	Cheklov
					ishlamaydi
Agentlik nazariyasi	M. Jensen	Emissiya boshqaruv nazoratini yumshatadi	Agentlik xarajatlari modeli	Boshqaruv muammolar i tushuntiriladi	Ijtimoiy omillar kam hisobga olinadi
Institutsional nazariya	North, Rajan va Zingales	Emissiya muhitga bog‘liq	Huquqiy-institutsional model	Real muhitga mos	Keng qamrovli, o‘lchash qiyin
Rivojlanish nazariyasi	Stiglitz	Emissiya iqtisodiy o‘shishni tezlatadi	Moliyaviy chuqurlik modeli	Makro tahlil kuchli	Mikro jihatlar yetarli emas

Modigliani va Miller tomonidan ishlab chiqilgan kapital tuzilmasining befarqlik nazariyasiga ko‘ra, mukammal bozor sharoitida aksiyalar emissiyasi kompaniya qiymatiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Ushbu model matematik jihatdan mukammal bo‘lsa-da, amaliy tajribada aksiyadorlik jamiyatlari soliqlar, axborot assimetriyasi va bozor noaniqligi sharoitida faoliyat yuritadi. Shu sababli, keyingi yondashuvlar ushbu nazariyani real bozor sharoitiga moslashtirishga qaratildi.

Myers va Majluf tomonidan asoslangan “pecking order theory” doirasida kompaniyalar moliyalashtirishda ichki manbalarga ustuvorlik berishi, tashqi emissiyani oxirgi bosqichda amalga oshirishi qayd etiladi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, emissiya faoliyati nafaqat kapital olish vositasi, balki kompaniyaning bozor oldidagi signali sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Fama tomonidan ishlab chiqilgan bozor samaradorligi gipotezasi esa emissiya jarayonida axborot oshkoraligining strategik ahamiyatini asoslab beradi. Agar bozor to‘liq samarador bo‘lsa, yangi chiqarilayotgan aksiyalarning narxi real qiymatni aks ettiradi va spekulyativ xatarlar kamayadi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda kapital bozori hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, ushbu model to‘liq ishlamaydi.



Shu nuqtai nazardan, institutsional yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Douglass North, Rajan va Zingales tadqiqotlarida emissiya darajasi kapital bozor institutlarining rivojlanish darajasi, investor huquqlarining himoyasi va huquqiy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy asoslangan. Bu esa metodologik jihatdan shuni anglatadiki, emissiya faoliyatini faqat moliyaviy instrument sifatida emas, balki institutlar tizimi doirasida baholash zarur.

Mahalliy olimlardan S. Elmirzayev, **X. Xolboyev, S. Muydinov, B. Toshmatov** va boshqa iqtisodchi olimlar ham O‘zbekiston kapital bozorini chuqurlashtirish va aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish zarurligini ta’kidlaydilar.

Sh.Sh. Shoha’zamiy o‘z tadqiqotlarida aksiyadorlik jamiyatlarida emissiya faolligini kapital bozorining institutsional yetilish darajasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘laydi. Uning fikriga ko‘ra, emissiya rivoji faqat normativ hujjatlar orqali emas, balki bozor infratuzilmasi, investorlar huquqlarini himoyalash mexanizmlari va axborot ochiqligi orqali ta’minlanadi. U emissiyani iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlovchi muhim moliyaviy instrument sifatida baholaydi.

B.S. Toshmatov emissiya jarayonlarining investitsion faollikka ta’sirini makroiqtisodiy nuqtayi nazardan o‘rganib, uni iqtisodiy o‘shishning muhim katalizatori sifatida baholaydi. Uning ilmiy ishlanmalarida emissiya kredit, byudjet va tashqi investitsiya bilan bir qatorda real sektorni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri sifatida ko‘riladi.

S.B. Muydinov fond bozorining texnologik va institutsional infratuzilmasi yetishmasligi emissiya faoliyatining sust rivojlanishiga sababchi bo‘layotganini asoslaydi. U emissiya samaradorligini faqat huquqiy muhit emas, balki depozitariy, kliring, brokerlik institutlari tizimi bilan ham bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

A.A. Abdulkarimov korporativ moliya doirasida emissiya faoliyatiga kapital tuzilmasining muhim elementi sifatida qaraydi. U O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida qarz kapitalining ustunligi kapital barqarorligiga xavf tug‘dirayotganini, emissiya rivojlanishi bu muammoga muvozanat yechimi bo‘la olishini ta’kidlaydi.

Q.X. Xolboyev o‘z ilmiy izlanishlarida korporativ boshqaruv sifati bilan emissiya faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, yaxshi boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan jamiyatlarga muvaffaqiyatli aksiyalar joylashtira oladi, chunki investorlar asosan ochiqlik, hisobdorlik va mustaqil direktorlar mavjudligiga e’tibor qaratadi.

I.S. Qodirov emissiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning rivojlanishiga urg‘u berib, normativ-huquqiy baza bozorni cheklovchi emas, balki rag‘batlantiruvchi mexanizm



bo‘lishi zarurligini qayd etadi. U regulyatorning vazifasini nazorat bilan cheklanmasdan, emissiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida ko‘radi.

N.M. Yusupov davlat ulushi yuqori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida emissiya jarayonlari yetarlicha faollashmayotganini ta’kidlab, davlat kapitali ustun bo‘lgan sharoitda xususi investorlarning manfaatlari to‘liq ta’minlanmasligini ko‘rsatadi.

D.A. Raxmonov esa investorlar moliyaviy savodxonligining yetarli darajada shakllanmaganligi emissiya faoliyatining keng yoyilishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

S. Elmirzayev o‘z ilmiy chiqishlarida emissiya jarayonini faqat iqtisodiy mexanizm emas, balki institutsional ishonch tizimi sifatida baholaydi. U iqtisodiy tizimda ishonch darajasi past bo‘lsa, aksiyalar bozori rivojlanmasligini, shuning uchun emissiyani boshqarishda axborot shaffofligi va korporativ madaniyat ustuvor bo‘lishi shartligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Modigliani, F. & Miller, M. (1958). *The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment*. American Economic Review.
2. Fama, E. (1970). *Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work*. Journal of Finance.
3. Myers, S., & Majluf, N. (1984). *Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information Investors Do Not Have*. Journal of Financial Economics.
4. Jensen, M.C. (1986). *Agency Costs of Free Cash Flow, Corporate Finance, and Takeovers*. American Economic Review.
5. Stiglitz, J., & Weiss, A. (1981). *Credit Rationing in Markets with Imperfect Information*. American Economic Review.
6. Rajan, R., & Zingales, L. (1998). *Financial Dependence and Growth*. American Economic Review.
7. Paetz, P. (2022). *Monetary Policy and Capital Market Deepening*. Journal of Macroeconomic Dynamics.
8. Elmirzayev, S. (2023). *Korporativ boshqaruvni takomillashtirish va kapital bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari*. TDIU Ilmiy jurnali.
9. Xolboyev, X. (2024). *O‘zbekiston kapital bozorini rivojlantirishning institutsional omillari*. TSUE Journal.

**O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTONDAGI AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA
INVESTITSION LOYIHALARNI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA
KORPORATIV BOSHQARUV OMILLARI**

Dilnozaxon Muxitdinova

*“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrası, Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti, Toshkent, O‘zbekiston,*

dilnozakhnmukhitdinova@gmail.com

Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ sektorning asosiy institutsional shakli bo‘lib, ularning investitsion qarorlari iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishi va barqaror o‘shish sur‘atlarini belgilab beradi. Investitsion loyihalarni to‘g‘ri baholash kapitalni eng samarali yo‘nalishlarga taqsimlash, aksiyadorlar boyligini maksimal darajada oshirish va korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta‘minlash imkonini beradi. Shu bois O‘zbekiston va Qozog‘istondagi aksiyadorlik jamiyatlarida kapital byudjetlashtirishning nazariy asoslarini qayta ko‘rib chiqish va ularni amaldagi institutsional muhit bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Moliya nazariyasida investitsion loyihalarni baholash NPV (sof joriy qiymat), IRR (ichki foyda normasi), PI (daromadlilik indeksi), diskontlangan va oddiy to‘lov muddati kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Diskontlangan pul oqimlari konsepsiyasi kapital qiymatini kelajakdagi pul oqimlarining hozirgi qiymati orqali aniqlashni nazarda tutadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida NPV va IRR eng asosiy mezonlar sifatida tan olingan, chunki ular loyihaning korxonaga qiymatiga keltiradigan sof ta‘sirini ham, kapital qiymati bilan bog‘liq xatarlarni ham hisobga olish imkonini beradi.

Rivojlanayotgan bozorlar sharoitida, jumladan O‘zbekiston va Qozog‘istonda, tarixan oddiy to‘lov muddati va hisob-kitob rentabelligi kabi soddalashtirilgan usullar keng qo‘llanib kelgan. Bunga statistik ma‘lumotlarning yetarlicha chuqur emasligi, pul bozoridagi barqarorlik yetishmasligi hamda xatarlarni miqdoriy baholashning murakkabligi sabab bo‘lgan. Biroq oxirgi yillarda korporativ boshqaruv standartlarining takomillashuvi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashuv va fond bozorini rivojlantirish natijasida diskontlangan pul oqimlariga asoslangan usullarning qo‘llanishi sezilarli darajada kengayib bormoqda.

Korporativ boshqaruv investitsion qarorlar sifati va samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. La Porta va hammualliflarining tadqiqotlari investor huquqlarini himoya qilish darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda tashqi moliyalashtirish hajmi cheklanganini, yirik va uzoq muddatli loyihalarga kirishish esa sezilarli xatar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Claessens, Rajan va Zingales kabi tadqiqotchilar korporativ boshqaruv sifati va institutsional rivojlanish investitsion loyihalar strukturasi, kapital tuzilmasini va risk profilini belgilovchi



muhim omil ekanini ta’kidlaydilar.

O‘zbekiston va Qozog‘istonda oxirgi o‘n yillikda korporativ boshqaruv kodekslarining joriy etilishi, kuzatuv kengashlari vakolatlarining kengayishi, mustaqil direktorlar instituti, audit qo‘mitalari, axborot oshkoraligi va IFRS ga bosqichma-bosqich o‘tish kabi islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion loyihalarni baholashni faqat qisqa muddatli moliyaviy natijalar bilan emas, balki uzoq muddatli qiymat yaratuvchi omillar bilan bog‘lashga imkon bermoqda.

1-jadval

O‘zbekiston va Qozog‘iston aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion loyihalarni baholashning qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich / yo‘nalish	O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari	Qozog‘iston aksiyadorlik jamiyatlari	Qiyosiy tahlil
Kapital byudjetlashtirishning asosiy maqsadi	Uzoq muddatli o‘shish va modernizatsiyani ta’minlash, lekin ko‘p hollarda qisqa muddatli likvidlik va tez qaytish omili kuchli ta’sir qiladi.	Uzoq muddatli qiymat yaratish, xalqaro investorlar talablariga mos rentabellik va barqarorlikni ta’minlashga ko‘proq yo‘naltirilgan.	Har ikkala mamlakatda ham maqsad o‘xshash, lekin Qozog‘istonda bozor mexanizmlariga tayangan, O‘zbekistonda esa o‘tish davri omillari hamon sezilib turadi.
Eng ko‘p qo‘llaniladigan baholash usullari	Yirik kompaniyalarda NPV, IRR, diskontlangan to‘lov muddati; o‘rta va kichik subyektlarda hanuzgacha oddiy payback va rentabellik koeffitsientlari keng tarqalgan.	Yirik AJlarda NPV va IRR deyarli standart, payback ko‘proq qo‘shimcha indikator sifatida qo‘llanadi.	Diskontlangan pul oqimlariga asoslangan usullar Qozog‘istonda nisbatan barqaror va tizimli, O‘zbekistonda esa asta-sekin ustunlikka chiqmoqda.
Diskont stavkasini shakllantirish	Ko‘p hollarda yuqori “zaxira bilan” olinadi (20–25% atrofida), mamlakat xatari va inflyatsiya sezilarli qo‘shiladi, CAPM to‘liq qo‘llanmaydi.	Bozor rentabelligi, reytinglar, CAPM elementlari, mamlakat xatar premiyasi hisobga olinib, nisbatan tizimli yondashuv qo‘llanadi.	O‘zbekistonda ehtiyotkorlik yuqori, natijada ayrim loyihalar haddan ziyod ehtiyotkor baholanishi mumkin; Qozog‘istonda risk va rentabellik muvozanati bozorga yaqinroq.

**“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI”**

Korporati v boshqaruv tizimi	Korporativ boshqaruv kodeksi joriy etilgan, kuzatuv kengashlari va mustaqil direktorlar instituti shakllanmoqda, lekin amaliyotda sifat farqlari mavjud.	Korporativ boshqaruv elementlari (kuzatuv kengashi, komitetlar, mustaqil direktorlar) yirik kompaniyalarda ancha ilgari shakllangan.	Har ikkala mamlakatda formal talablar mavjud, Qozog‘istonda uzoqroq tajriba tufayli amaliyot nisbatan barqarorroq.
Axborot ochiqligi va moliyaviy hisobot	Yirik AJlarda IFRSga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda, lekin axborot oshkoraligi bo‘yicha kompaniyalararo tafovut katta.	Ko‘plab yirik kompaniyalar IFRS bo‘yicha auditorlikdan o‘tadi, yillik hisobot va prezentatsiyalar orqali investorlar bilan muloqot shakllangan.	O‘zbekistonda axborot ochiqligi o‘shish bosqichida, Qozog‘istonda esa bozor ishtirokchilariga ma’lumot yetkazish tizimi ancha shakllangan.
Xatarlarni baholash va boshqarish	Xatarlar ko‘p hollarda diskont stavkasini “ko‘tarish” orqali hisobga olinadi, senariy va sezgirlik tahlili kamroq qo‘llanadi.	Xatarlarni senariy tahlili, “stress-test”, sezgirlik tahlili orqali baholash usullari yirik korxonalarda kengroq qo‘llanadi.	Nazariy jihatdan bir xil, amalda esa Qozog‘istonda risk-menejment vositalari to‘laroq ishlatiladi; O‘zbekistonda shu yo‘nalishda salohiyatni oshirish zarur.
Davlat ishtirokida gi loyihalar ulushi	Davlat ulushi yuqori bo‘lgan AJlar ko‘p, yirik infratuzilma va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda davlat roli dominant.	Yirik davlat kompaniyalari mavjud, lekin ularning bir qismi IPO/SPO orqali bozorga chiqarilgan, xususiy investorlar ulushi oshib bormoqda.	O‘zbekistonda davlat roli kuchliroq, Qozog‘istonda esa bosqichma-bosqich bozorlashuv va xususiylashtirish jarayoni chuqurroq.
Strategik va ijtimoiy mezonlarni inobatga olish	Investitsion qarorlarda eksport, import o‘rmini bosish, hududiy rivojlanish, bandlik kabi mezonlar muhim o‘rin egallaydi, ba’zan moliyaviy mezonlardan	Strategik va ijtimoiy maqsadlar ham muhim, lekin aksariyat yirik loyihalar bozor rentabelligi va risk-return profilidan kelib chiqqan holda asoslanadi.	Har ikkala mamlakatda strategik omillar muhim, ammo O‘zbekistonda davlat dasturlari doirasidagi loyihalarda ijtimoiy mezonlar ustunroq, Qozog‘istonda



ustun qo'yiladi.

esa bozor mezonlari
kuchliroq.

Jadvaldan ko'rinadiki, har ikki mamlakatda kapital byudjetlashtirishning asosiy maqsadi bir xil bo'lsa-da, O'zbekistonda qisqa muddatli likvidlik va tez qaytadigan loyihalarga, Qozog'istonda esa uzoq muddatli qiymat yaratishga ko'proq urg'u beriladi. Yirik aksiyadorlik jamiyatlarida NPV va IRR qo'llanadi, ammo O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalarda hanuz sodda usullar (payback, rentabellik koeffitsienti) ustun, Qozog'istonda esa zamonaviy usullar tizimliroq qo'llanadi. Diskont stavkasi O'zbekistonda ko'pincha “zaxira bilan” juda yuqori olinadi, Qozog'istonda esa CAPM va bozor ko'rsatkichlariga tayangan yondashuv kuchliroq. Korporativ boshqaruv, IFRS va axborot ochiqligi bo'yicha Qozog'iston amaliyoti nisbatan shakllangan, O'zbekistonda esa normativ baza bor, lekin amaliyotda sifat farqi katta. Har ikki mamlakatda davlat ishtiroki yuqori, biroq O'zbekistonda ijtimoiy-strategik mezonlar ko'pincha moliyaviy natijalardan ustun, Qozog'istonda bozor rentabelligi va investor talablari ko'proq hisobga olinadi. Shu bois O'zbekiston uchun asosiy vazifa — metodologiyani standartlashtirish, risk-menejmentni kuchaytirish va korporativ boshqaruv institutlarini real ishlaydigan mexanizmga aylantirishdir.

Investitsion loyihalarni baholashning zamonaviy metodologiyasi quyidagi yo'nalishlarda takomillashishni talab qiladi:

- diskont stavkalarini shakllantirishda kapitalkiymat modelidan (CAPM) va mamlakat xatar premiyasidan foydalanish;
- inflyatsiya, valyuta kursi, siyosiy va tartibga solish xatarlarini senariy tahlili va sezgirlik tahlili orqali hisobga olish;
- NPV va IRR indikatorlarini strategik moslik, ESG ko'rsatkichlari, eksport salohiyati va import o'rnini bosish effekti bilan uyg'unlashtirish;
- investitsion qaror qabul qilishda kuzatuv kengashining roli va javobgarligini oshirish.

O'zbekiston va Qozog'iston misolida investitsion loyihalar ko'pincha energetika, transport, xom-ashyo qazib olish va sanoat infratuzilmasi sohalarida jamlangan. Bu esa loyihalarning kapital talabini yuqori, qaytish davrini esa nisbatan uzoq qiladi. Shuning uchun kapital byudjetlashtirish jarayonida xatarni to'g'ri baholash, loyihalarni portfel tamoyili asosida diversifikatsiya qilish va davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Qozog'istondagi aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion loyihalarni baholash amaliyotini modernizatsiya qilish uchun nafaqat metodik ko'rsatmalarni yangilash, balki korporativ boshqaruv sifatini oshirish, investor huquqlarini himoya qiluvchi institutlarni mustahkamlash, statistik va axborot infratuzilmasini rivojlantirish talab etiladi. Kapital byudjetlashtirishning ilg'or nazariy yondashuvlarini



mahalliy sharoitga moslashtirish aksiyadorlar boyligini oshirish bilan birga, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. La Porta R.. Investor Protection and Corporate Governance. Journal of Financial Economics. 2000
2. Claessens S.. Corporate Governance and Development. World Bank Working Paper.2006
3. Andor G., Mohanty S.K., Toth T. Capital Budgeting Practices in Central and Eastern Europe. Emerging Markets Review. 2015
4. Rajan R., Zingales L. Financial Dependence and Growth. American Economic Review. 1998
5. Amonboev M. Increasing the Effectiveness of Investment Management by Introducing Corporate Governance in Joint-Stock Companies. Journal of International Business Research and Marketing. 2001



O’LCHASH XATOLIKLARINI MINIMALLASHTIRISH: METROLOGIK YONDASHUV

Buxoro Davlat Texnika Universiteti “Metrologiya va standartlashtirish” kafedrası ,
“Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish” yo’nalishi ilmiy tadqiqotchi
magistranti

Eliyeva Ra’no Rustam qizi

E-mail. mobileebukhara@gmail.com

Telefon raqami: +998991251666

Annotatsiya

Ushbu maqolada o’lchash jarayonlarida yuzaga keladigan xatoliklarning turlari, ularning kelib chiqish sabablari va ularni minimallashtirishning samarali metrologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Metrologiya fanining asosiy tamoyillari asosida o’lchash vositalarini kalibrlash, kuzatish zanjiri (traceability)ni ta’minlash, noaniqliklarni baholash va o’lchash sharoitlarini optimallashtirish usullari ko’rib chiqiladi. Amaliy misollar orqali o’lchash natijalarining ishonchliligi va aniqligini oshirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar beriladi. Tadqiqot sanoat, laboratoriya va texnik nazorat jarayonlarida o’lchash sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Maqolada o’lchash xatoliklarini baholash va chin o’lchamni aniqlash usullari haqida batafsil ma’lumot beradi. O’lchashlar nazariyasi va o’lchash xatoliklarini bartaraf etish metrologiya sohasining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Maqolada O’zDSt 8.010.1:2002 standartiga muvofiq chin qiymat va haqiqiy qiymat tushunchalari yoritiladi. Chin qiymat, barcha o’lchash xatoliklarini bartaraf etish bilan erishiladigan ideal qiymatdir. Haqiqiy qiymat esa tajriba natijasida olingan va chin qiymatga eng yaqin bo’lgan qiymatdir.

Kalit so’zlar: Metrologiya, o’lchash xatoliklari , o’lchov noaniqligi, ishonchlilik, metrologik ta’minot.

Kirish.

Har qanday texnik jarayon yoki ilmiy tadqiqotning ajralmas qismi bo’lgan o’lchashlar inson faoliyatining barcha sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. O’lchash natijalarining ishonchliligi va aniqligi ishlab chiqarish samaradorligiga, mahsulot sifati va xavfsizligiga, laboratoriya tajribalarining to’g’ri baholanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli o’lchash xatoliklarini minimallashtirish metrologiya fanining dolzarb vazifalaridan biridir. O’lchash jarayonidagi xatolarni to’g’ri aniqlash, ularni tahlil qilish va ilmiy asoslangan metrologik yondashuvlarni qo’llash o’lchash natijalarining ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi.



1. O‘lchash xatoliklarining mohiyati va turlari

O‘lchash xatoliklari — bu o‘lchash natijasining haqiqiy qiymatdan chetlanishidir. Amaliyotda uchraydigan xatoliklar uch asosiy guruhga bo‘linadi:

1.1. Tasodifiy xatoliklar

Tasodifiy xatoliklar o‘lchash jarayonining takroriylikida turlicha natijalar beradigan, oldindan aniq prognozlab bo‘lmaydigan xatoliklardir. Ular atrof-muhitning kichik tebranishlari, operatorning sezilmaydigan xatolari, qurilma sezgirligi kabi omillar bilan bog‘liq.

1.2. Sistematik xatoliklar

Sistematik xatoliklar o‘lchash natijasiga bir yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatuvchi xatoliklardir. Ular quyidagi omillar ta’sirida yuzaga keladi:

- o‘lchash vositasining kalibrlanmaganligi yoki nuqsoni;
- noto‘g‘ri metodika;
- o‘lchash sharoitlarining talabga mos emasligi.

1.3. Qo‘pol (katta) xatoliklar

Bu xatoliklar operatorning bevosita noto‘g‘ri harakati, o‘lchash jarayonining noto‘g‘ri bajarilishi yoki asbobning nosozligi tufayli yuzaga keladi. Qo‘pol xatolar statistik qayta ishlash jarayonida aniqlanadi va o‘lchash natijalaridan chiqarib tashlanadi.

2. Xatoliklarning kelib chiqish sabablari

O‘lchash jarayonidagi xatoliklar quyidagi omillar bilan belgilanadi:

2.1. Instrumental omillar

- o‘lchov vositalarining eskirishi;
- sezuvchanlikning pastligi;
- kalibrlashning noto‘g‘ri yoki o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi.

2.2. Metodik omillar

- noto‘g‘ri tanlangan o‘lchash usuli;
- standart talablariga mos kelmaydigan o‘lchash sharoitlari;
- metodika bo‘yicha operatorning yetarli malakaga ega emasligi.

2.3. Tashqi omillar

- harorat va namlikning o‘zgarishi;
- mexanik tebranishlar;
- elektromagnit maydonlar.



3. O'lchash xatoliklarini minimallashtirishning metrologik yondashuvlari

Xatoliklarni kamaytirish uchun metrologiya fanida bir qator ilmiy asoslangan yondashuvlar qo'llaniladi.

3.1. O'lchov vositalarini kalibrlash

Kalibrlash — o'lchash vositasining ko'rsatkichlarini etalon qiymatlar bilan solishtirib, aniqlik darajasini belgilash jarayonidir. Muntazam kalibrlashni amalga oshirish orqali sistematik xatoliklar sezilarli kamayadi.

3.2. O'lchash sharoitlarini optimallashtirish

O'lchash jarayonining harorat, namlik, bosim kabi tashqi omillarga sezuvchanligi sababli optimal muhit sharoitlarini yaratish zarur.

3.3. O'lchash noaniqligini baholash

Noaniqlik — o'lchash natijasining ishonchlilik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichdir. Noaniqlikni baholash quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- statistik qayta ishlash;
- noaniqlik komponentlarini aniqlash;
- uzatilish zanjiri bo'ylab aniqlikni baholash.

Muntazam xatoliklarni bartaraf etish. Sistematik xatoliklar o'lchashlar natijalarining buzilishiga olib keladi. Eng katta xavf bo'lib aniqlanmagan sistematik xatolik hisoblanadi. Sistematik xatoliklar sababli ilmiy xulosalar noto'g'ri bo'lib chiqqan, ishlab chiqarish to'xtab qolgan, iqtisodiy yo'qotishlar yuzazga kelgan. Sistematik xatolikni har qanday usullardan foydalanib, bartaraf etish kerak. Sistematik xatolikni bartaraf etish usullarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: - xatoliklar manbaini o'lchashlarni (profilaktika) boshlashdan oldin o'chirib tashlash; - o'lchash jaaryonida sistematik xatolikni chiqarib tashlash; - o'lchashlar natijalariga tuzatishlarni kiritish.

Birinchi metod maqsadga muvofiqdir, chunki o'lchash jarayonini soddalashtiradi va tezlashtiradi. «Xatolik manbaini o'chirish» atamasi o'chirish (masalan, issiqlik manbaini o'chirish) va bunday manbalar ta'siridan o'lchash ob'ektini va o'lchash apparatursini himoya qilish tushuniladi. Temperatura xatoligini oldini olish uchun atrof muhitning qiymatlar diapazonidagi xaroratni bir xil saqlash uchun va o'lchash asboblarini va ularning tarkibiy qismlarini aniq o'lchash uchun termoregulyatordan foydalaniladi. Yerning magnit maydonining ta'siridan, doimiy va o'zgaruvchan tok zanjirlarining induksiyaangan magnit maydondan birikishini o'lchash magnit ekranlar yordamida amalga oshiriladi. Zararli tebranishlar o'lchash asbobini dempirlash (dempfirlovchi vibratsiya) bilan bartaraf etiladi. O'lchash asbobining muayyan namunasiga xos bo'lgan instrumental' xatolik manbai Calibra o'tkazish usuli bilan o'lchash boshlanishidan oldin bartaraf etilishi mumkin. Bundan tashqari, MEA blokini noto'g'ri o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan xatoliklar manbai o'lchash



boshlanishidan oldin bartaraf etilishi mumkin. O‘lchashlar vaqtida noto‘g‘ri o‘rnatilishi va destruktiv ta’sirlar kabi ayrim instrumental xatoliklar chiqarib tashlanishi mumkin. Bularga takroriy o‘lchashlar bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus yondashuvlardan foydalanish hisobiga erishish mumkin. Ushbu metodlardan biror bir metodning o‘rniga va taqqoslash uchun foydalaniladi. O‘rniga qo‘yish metodida miqdor izlanadi, o‘lchanadi, ob’ektni takroran o‘lchashda o‘lchashlar o‘lchovlar bilan almashtiriladi.

O‘lchashlar natijasini o‘lchov kattaligidan aniqlash, o‘chirish o‘lchash maketining teng bo‘lishiga ta’sir etadigan sistematik effektning katta miqdori uchun qo‘shiladi. Masalan, elektr zanjirining parametrlarini (elektr qarshiligi, sig‘im yoki induc-holati) o‘lchashda ob’ekt o‘lchash zanjiriga ulanadi va tenglikni hosil qilish uchun joylashtiriladi. Tenglikka erishilgandan keyin o‘lchash ob’ekti o‘zgaruvchan qiymat o‘lchovi (qarshilik magazini, sig‘im, induktivlik) bilan almashtiriladi va qiymati o‘zgartiriladi. Avtomatik tenglikni sozlash qo‘shiladi. Bunda almashtirish metodi qoldiq notekis o‘lchash zanjirini, zanjirdagi magnit va elektr maydonlarining ta’sirini, sxemaning alohida elementlarining o‘zaro ta’sirini, shuningdek boshqa zararli effektlarni bartaraf etish imkonini beradi.

Xulosa

Ushbu maqolada o‘lchash xatoliklarini baholash va muntazam xatoliklarni bartaraf etish usullari o‘rganildi. O‘lchash xatoliklarini minimallashtirish — bu murakkab, ammo metrologik yondashuvlar asosida samarali hal etiladigan jarayon. O‘lchash vositalarini kalibrlash, o‘lchash sharoitlarini optimallashtirish, noaniqlikni baholash va kuzatuvchanlikni ta’minlash o‘lchash natijalarining ishonchliligini keskin oshiradi. Metrologik ta’minotning takomillashtirilishi sanoat, ilm-fan va texnik nazorat sohalarida sifatni yuqori darajada ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Пиримов, О. Ж., & Эсанов, Т. Б. (2022). Электр транспорт воситаларини куёш электр станциялари ёрдамида кувватлантириш учун лойиҳа ва моделлар. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 835-844.
2. Bevington, P.R., & Robinson, D.K. (2003). *Data Reduction and Error Analysis for the Physical Sciences*. McGraw-Hill Education.
3. BIPM, IEC, IFCC, ILAC, ISO, IUPAC, IUPAP, & OIML. (2008). *Evaluation of measurement data – Guide to the expression of uncertainty in measurement*. JCGM 100:2008.
4. Dieck, R.H. (2006). *Measurement Uncertainty: Methods and Applications*. ISA.



5. Jo‘rayevich, Primov Odil, and Esanov Temurmaliq Beknazar o‘gli. "Sun‘iy intellekt va quyosh energiyasi birlashmasi: energiya tizimlarida elektromobillarni quvvatlantirishning yangi yondashuvlari." *Science and innovation* 3.Special Issue 17 (2024): 620-629.
6. GUM Workbench (2010). *Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement. Software for Uncertainty Analysis.* Metrodata GmbH.

**Profilaktika inspektorining ijtimoiy obyektlariga nisbatan chora-tadbirlarini qo'llash
va yakunlash bo'yicha mahalla yettiligi xodimlariga xulosa berish va qo'shma xulosa
tuzish faoliyatini takomillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3 kurs kursanti

Ahmadov Asilbek Akbar o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorining ijtimoiy obyektlarda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshiradigan chora-tadbirlari, ularning samaradorligini baholash jarayoni hamda yakuniy xulosa berish mexanizmlari yoritilgan. Mahalla yettiligi xodimlari bilan hamkorlikda qo'shma xulosa tuzishning ahamiyati, bu jarayonning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi roli va amaliy natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, inspektorlarning faoliyatini takomillashtirishga doir takliflar, kommunikativ ko'nikmalarni kuchaytirish va mahalla ichida ishonchli hamkorlik muhitini shakllantirish zarurligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, ijtimoiy obyektlar, huquqbuzarliklarning oldini olish, chora-tadbirlar, mahalla yettiligi, qo'shma xulosa, xavfsizlik, profilaktik ishlar, huquqiy nazorat, hamkorlik.

Bugungi kunda jamiyat xavfsizligi, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika ishlarini tizimli tashkil etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, profilaktika inspektorlarining faoliyati mahallalarda huquqiy tartibotni mustahkamlash, ijtimoiy obyektlar faoliyatini monitoring qilish, aholining turmush tarzini o'rganish va muammolarni manzilli hal etishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham ularning vazifalarini takomillashtirish, xususan, ijtimoiy obyektlar bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llash va yakuniy xulosa berish jarayonini to'g'ri tashkil etish bugungi kun talablaridan biridir.

Ijtimoiy obyektlar – bu aholiga xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar bo'lib, maktab, bog'cha, tibbiyot muassasalari, savdo maskanlari, ishlab chiqarish subyektlari va boshqa muhim obyektlarni o'z ichiga oladi. Mazkur obyektlarning har biri o'ziga xos xavf omillariga ega bo'lgani uchun profilaktika inspektori faoliyati ularda huquqbuzarliklarning oldini olish, xavfsizlik choralarga rioya qilinishini nazorat qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonning samaradorligi esa inspektorning nafaqat huquqiy bilimiga, balki uning muomala madaniyati, tashkiliy qobiliyati va mahalla hamjamiyati bilan hamkorlik darajasiga ham bog'liq.

Profilaktika inspektorining asosiy vazifalaridan biri – obyekt rahbariyatiga aniqlangan kamchiliklar bo'yicha ogohlantirish berish, zaruriy huquqiy chora-tadbirlarni qo'llash, ularning bajarilishini nazorat qilish va natijasi bo'yicha rasmiy xulosa tayyorlashdir. Ushbu



jarayon amalda to'g'ri olib borilishi uchun inspektor har bir obyektning muntazam o'rganishi, xavf-xatarlarni baholashi hamda amaldagi qonunchilikni to'liq bilishi lozim. Ayniqsa, ularning faoliyatida mahalla yettiligi xodimlari bilan hamkorlik muhim o'rin tutadi. Chunki mahalla yettiligi hudud ichidagi muhitni yaxshi biladi, aholini yaqindan kuzatadi va profilaktik choralarini tez va manzilli qo'llashga yordam beradi.

Mahalla yettiligi xodimlariga xulosa berish jarayoni alohida mas'uliyatni talab qiladi. Xulosa mazmunan asosli, huquqiy jihatdan to'g'ri va real holatga mos bo'lishi kerak. Chunki ushbu hujjat asosida mahalla ichida bir qator tartib-intizomiy ishlarga start beriladi, ba'zan esa chora-tadbirlarning samaradorligi aynan inspektor bergan xulosaga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, qo'shma xulosa tuzish jarayoni ham muhim bo'lib, unda profilaktika inspektori, mahalla yettiligi va tegishli tashkilot vakillari birgalikda obyekt faoliyatini baholaydilar va umumiy tavsiyalarni ishlab chiqadilar. Bu jarayonning to'g'ri yo'lga qo'yilishi hamkorlikning uzviyligini, mas'uliyatning aniq taqsimlanishini va mahalla xavfsizligini ta'minlashdagi yagona yondashuvni mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mahalla institutini rivojlantirish, uning huquqiy maqomini mustahkamlash va jamoat xavfsizligidagi rolini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda profilaktika inspektorining faoliyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, elektron nazorat tizimlarining joriy etilishi, hujjatlar aylanishining soddalashtirilishi, inspektorlarning malakasini oshirish bo'yicha muntazam o'quv kurslarining tashkil etilishi samaradorlikni sezilarli oshirmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, chora-tadbirlarni qo'llash jarayonida inson omiliga e'tibor berish, aholi bilan ochiq muloqotda bo'lish, tushuntirish ishlari, profilaktik suhbatlar, tavsiyalar berish va ogohlantirish kabi yumshoq yondashuvlar ko'proq samara beradi. Takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ham inspektorlarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, ular bilan mahalla aholisi o'rtasida ishonchli muhitni shakllantirish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorining ijtimoiy obyektlarga nisbatan chora-tadbirlarni qo'llash, yakuniy xulosa berish va mahalla yettiligi bilan qo'shma xulosa tuzish jarayonini takomillashtirish nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olish, balki mahalla hayotida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning professional tashkil etilishi esa jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va jamoat xavfsizligini mustahkamlashning eng muhim omillaridan biridir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijro kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.
3. “Huquqbuzarliklarning oldini olish to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2014.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-martdagi PQ–4235-son qarori “Mahalla tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda PF–6124-son Farmoni “Ichki ishlar organlari profilaktika faoliyatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”.
6. Bobojonov R.X. Profilaktika xizmatining huquqiy asoslari. – Toshkent: Yuridik nashr, 2021.
7. Zaynobiddinov A.B. Mahalla tizimida profilaktik ishlarni tashkil etish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
8. Xoliqov A.J. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlarining o‘rni. – Toshkent: Huquq, 2021.
9. Murodov M., Nizomov B. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va mahalla institutining hamkorligi. – Ilmiy maqola, “Yuridik fanlar” jurnali, 2022, №4.

**Profilaktika inspektorining ijtimoiy obyektlariga nisbatan chora-tadbirlarni qo'llash
va yakunlash bo'yicha mahalla yettiligi xodimlariga xulosa berish hamda qo'shma
xulosa tuzish faoliyatini takomillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3 kurs kursanti

Ahmadov Asilbek Akbar o'g'li

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada profilaktika inspektorining ijtimoiy obyektlarga nisbatan chora-tadbirlarni qo'llash jarayoni, ularni yakunlash va natijalar yuzasidan mahalla yettiligi xodimlariga xulosa berish hamda qo'shma xulosa tuzish tizimi yoritilgan. Mahalla va profilaktika inspektori o'rtasidagi hamkorlikning huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligiga ta'siri, chora-tadbirlarning baholanishi, mas'uliyatli jarayonlarni takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, qo'shma xulosa tuzishning zamonaviy yondashuvlar yordamida yanada samarali tashkil etilishi haqida fikr yuritilgan.

KALIT SOZLAR: Profilaktika inspektori, mahalla yettiligi, ijtimoiy obyektlar, chora-tadbirlar, qo'shma xulosa, profilaktika ishlari, hamkorlik, huquqbuzarliklarning oldini olish, xavfsizlik, monitoring, samaradorlik.

Mamlakatimizda jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika ishlarini samarali tashkil etishda mahalla tizimi hamda profilaktika inspektorlarining o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi. Aholi xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy obyektlarning barqaror faoliyat yuritishi va xavf omillarini erta aniqlashda ushbu ikki bo'g'in faoliyatining uyg'unligi katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, profilaktika inspektori tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni mahalla yettiligi xodimlari bilan birgalikda baholash, yakuniy xulosa tuzish hamda qo'shma xulosani rasmiylashtirish jarayoni tizimning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Profilaktika inspektori o'z hududidagi ijtimoiy obyektlarning holatini o'rganar ekan, ularning xavfsizlik darajasi, huquqbuzarlik xavfi, aholining ehtiyojlari va mavjud muammolarni tahlil qiladi. Ushbu ma'lumotlar asosida u tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi. Biroq chora-tadbirlarni yakuniy baholash jarayonida inspektor yakkama-yakka faoliyat yuritmaydi, balki mahalla yettiligi bilan hamkorlikda obyektiv xulosa ishlab chiqadi. Chunki mahalla yettiligi xodimlari aholining ichki hayoti, muammolari va ehtiyojlaridan yaxshi xabardor bo'lgan holda holatga yanada keng qamrovli baho berishi mumkin.

Qo'shma xulosa tuzish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. Avvalo, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalari to'plangan ma'lumotlar asosida muhokama qilinadi. Keyinchalik, har bir xodim o'zining kuzatuvlari va tavsiyalarini bildiradi. Yakunda esa bajarilgan ishlarning samaradorligi, aniqlangan kamchiliklar, kelgusida ko'rilishi zarur bo'lgan choralar bo'yicha yagona fikr shakllantiriladi va rasmiy qo'shma xulosa tayyorlanadi. Ushbu



jarayonning aniq, tizimli va shaffof tashkil etilishi nafaqat mahalladagi profilaktika ishlarini sifatli olib borishga, balki huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha amalga oshiriladigan strategik rejalarning pishiq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni takomillashtirish birinchi navbatda axborot almashinuvini kuchaytirish, elektron qaydlar tizimini joriy etish, har bir chora-tadbirning samaradorligini o‘lchash mezonlarini rivojlantirish hamda mahalla yettiligi a‘zolarining mas’uliyatini oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, profilaktika inspektorining professional tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanishga o‘rgatish, ijtimoiy obyektlarni monitoring qilishning yangi uslublarini tatbiq etish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mahallada tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, ijtimoiy obyektlar faoliyatida xavfsizlik madaniyatini mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish ko‘p jihatdan profilaktika inspektori va mahalla yettiligi o‘rtasidagi hamkorlikning qanchalik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liq. Qo‘shma xulosa tuzish jarayonida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish esa butun profilaktika tizimining barqarorlik va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi normativ-huquqiy hujjatlari.
3. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi metodik qo‘llanmalari.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Abdullayev Y. va boshqalar. Huquqbuzarliklar profilaktikasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent, 2021.
6. Internet manbalari: mahalla tizimi va profilaktika faoliyatiga oid rasmiy saytlar va metodik tavsiyalar.

**KEKSA YOSHDAGI BEMORLARDA YURAK YETISHMOVCHILIGI KLINIK
KECHISHINING O'ZIGA XOSLIKLARI****Ismoilov Rustamjon Muydinjon o'g'li**¹Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti nevrologiya yo'nalishi 2-bosqich ordinatori**Qodirxonov Muhammadaminxon Mansurxon o'g'li**²Andijon davlat tibbiyot instituti Terapiya yo'nalishi, 1-bosqich magistratura talabasi[*²Xat yozish uchun: E-mail: muhammadaminxonqodirxonov@gmail.com]

Annotatsiya: Yurak yetishmovchiligi keksa yoshdagi bemorlar orasida keng tarqalgan bo'lib, ko'pincha komorbid kasalliklar va fiziologik qarish jarayonlari bilan murakkablashadi. Tadqiqot maqsadi keksa yoshdagi bemorlarda yurak yetishmovchiligi kechishining klinik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. 65 yoshdan oshgan 60 nafar bemor klinik kuzatuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dispnoe, yurak ritm buzilishlari va periferik shishlar eng ko'p uchragan simptomlar bo'ldi. Komorbid kasalliklar (arterial gipertenziya, diabet, KOAH) yurak yetishmovchiligining og'ir kechishiga sabab bo'ldi. Xulosa o'rnida, ushbu yosh guruhida tashxis va davolashda individual yondashuv, dori dozalarini moslashtirish hamda muntazam monitoring zarurligi ta'kidlanadi.

Аннотация: Сердечная недостаточность является одним из наиболее распространённых заболеваний у пожилых пациентов, осложнённым физиологическим старением и коморбидной патологией. Цель исследования — изучить особенности клинического течения сердечной недостаточности у пациентов старше 65 лет. В исследовании приняли участие 60 пациентов, прошедших клиническое наблюдение. Наиболее частыми симптомами были одышка, аритмия и периферические отёки. Коморбидные заболевания, такие как артериальная гипертензия, сахарный диабет и ХОБЛ, утяжеляли течение заболевания. Заключение: лечение пожилых пациентов требует индивидуального подхода, коррекции доз лекарственных средств и постоянного мониторинга состояния.

Annotation: Heart failure is one of the most common chronic diseases among elderly patients and is often complicated by age-related physiological changes and comorbidities. The aim of this study was to identify clinical characteristics of heart failure in patients over 65 years of age. Sixty patients were clinically observed and analyzed. The most frequent symptoms were dyspnea, cardiac arrhythmia, and peripheral edema. Comorbid conditions such as hypertension, diabetes mellitus, and COPD significantly worsened disease progression. In conclusion, individualized treatment, careful adjustment of medication dosages, and regular clinical monitoring are essential in managing heart failure among elderly patients.

Kalit so'zlar: yurak yetishmovchiligi, gerontologiya, komorbidlik, klinik kechish,



keksa yosh.

Ключевые слова: сердечная недостаточность, геронтология, коморбидность, клиническое течение, пожилой возраст.

Keywords: heart failure, gerontology, comorbidity, clinical course, elderly patients.

Yurak yetishmovchiligi hozirgi davrda nafaqat kardiologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi orasida keksalar ulushi ortib borayotgan sharoitda ushbu kasallikning tarqalishi, og‘ir kechishi va qayta kasallanishlar soni ham ortmoqda (1). Qarilik davrida yurak mushak to‘qimalarining fibrozlashuvi, miokardning kontraktil imkoniyatining kamayishi hamda qon tomir devorlarining qattiqlashuvi yurakning nasos funksiyasini zaiflashtiradi (2).

Klinik amaliyotda 65 yoshdan oshgan bemorlarda yurak yetishmovchiligi ko‘pincha diastolik shaklda namoyon bo‘ladi. Bu holatda ejeksiya fraksiyasi nisbatan saqlangan bo‘lsa-da, miokardning qisqarish funksiyasi buzilgan bo‘ladi. Shuning uchun, bunday bemorlar ko‘pincha dispnoe, tez charchash, kechki shishlar, yurak urishining tezlashuvi kabi nospetsifik simptomlar bilan murojaat qiladilar (3,4). Ayrim hollarda simptomlar kognitiv buzilishlar, chalkash xotira va holsizlik bilan namoyon bo‘lib, yurak yetishmovchiligining kech aniqlanishiga sabab bo‘ladi (5).

Keksa yoshdagi bemorlarda kasallik kechishining o‘ziga xos tomoni shundaki, ularning organizmida komorbid kasalliklar — arterial gipertenziya, qandli diabet, surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SO‘OK) va buyrak yetishmovchiligi bilan birga kuzatiladi. Bu holat yurak yetishmovchiligi patogeneza murakkab zanjirli o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi (6).

Yurakning gormonal va neyrohumoral tizimlarida yuz beruvchi o‘zgarishlar (renin-angiotenzin-aldosteron tizimi, simpatoadrenal faollikning ortishi) kasallikni yanada og‘irlashtiradi. Shu sababli, farmakoterapiya jarayonida bemorning yoshiga, buyrak faoliyatiga, arterial bosim darajasiga qarab dori dozalari ehtiyotkorlik bilan tanlanadi (7).

Amaliy kuzatuvlarga ko‘ra, yurak yetishmovchiligi bo‘lgan keksa bemorlarning ko‘pchiligi bir vaqtning o‘zida 5–7 turdagi dori vositalarini qabul qiladi. Bu esa farmakodinamik o‘zaro ta‘sir xavfini oshiradi. Shu bois, zamonaviy tavsiyalar (ESC, 2021) asosida bemorlarning dorivor davosi individuallashtirilishi, diuretiklar, APF ingibitorlari, beta-blokatorlar va aldosteron antagonistlari past dozadan boshlanishi lozim (1,3). Davolashda dori terapiyasi bilan bir qatorda jismoniy faollikni me‘yorda saqlash, tuz iste‘molini cheklash, psixosotsial holatni barqarorlashtirish, dietoterapiya va doimiy monitoring muhim o‘rin tutadi (5).

Keksalikda yurak yetishmovchiligining kechishi bemorning ijtimoiy faolligi, moddiy sharoiti va oilaviy qo‘llab-quvvatloviga ham bog‘liq. Shu bois, kompleks yondashuvda



kardiolog, terapevt, fizioterapevt va ijtimoiy xodimlarning birgalikdagi ishi kasallikni samarali nazorat ostida ushlab turishga yordam beradi (6).

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida aytilish mumkinki, yurak yetishmovchiligi keksalarda faqat kardiologik emas, balki multifaktorial tibbiy muammo sifatida ko'rilishi zarur. Kasallikni erta aniqlash, klinik belgilarni to'g'ri baholash, dori vositalarini to'g'ri tanlash va muntazam monitoring yurak yetishmovchiligi bilan og'rigan keksa bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. McDonagh T.A. et al. 2021 ESC Guidelines for the Diagnosis and Treatment of Acute and Chronic Heart Failure. *European Heart Journal*, 2021; 42(36): 3599–3726.
2. Savarese G., Lund L.H. Epidemiology, aetiology and prognosis of heart failure. *Nature Reviews Cardiology*, 2017; 14(10): 591–602.
3. Ponikowski P., Voors A.A. Heart failure in the elderly: pathophysiology and management. *Eur J Heart Fail*, 2019; 21(12): 1405–1417.
4. Yancy C.W. et al. Heart Failure with Preserved Ejection Fraction in the Elderly: Diagnostic and Therapeutic Challenges. *Journal of Geriatric Cardiology*, 2020; 17(6): 320–329.
5. Gielen S., Sandri M. Age-related cardiac remodeling and diastolic dysfunction. *J Clin Gerontol*, 2020; 6(3): 112–118.
6. Орипов А.А., Содиқов Ш.Б. Кексаларда юрак етишмовчилигининг клиник хусусиятлари ва даволаш усуллари. *Тиббиёт журнали*, 2022; №4: 45–49.
7. Shah S.J., Borlaug B.A. Comorbidities, hemodynamics, and outcomes in elderly heart failure patients. *Circulation*, 2019; 140(9): 712–723.

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR TAFAKKURINI KENGAYTIRISH YO‘LLARI**

Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali 1-kurs magistranti
Dadajonova Azizajon Abdurazzoq qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy usullari va metodlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy magsadi - tafakkurni kengaytirishning nazariy asoslari va amaliyotdagi samarali yo'llarini aniglashdir. Maqolada boshlang'ich sinflarda tafakkur rivojlanishining ahamiyati, uning psixologik-pedagogik jihatlarini tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tafakkurni kengaytirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: savol-javob texnikasini takomillashtirish, muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlarni qo'llash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va badiiy asoslarda muhokamalar olib borish. Eksperimental sinflarda ushbu metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarning muammolarni hal qilish tezligi 40% ga, ijodiy yechimlar soni esa 60% ga oshganligi aniqlandi. Maqolada ta'lim jarayonida tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi va uni amalga oshirish yo'llari haqida taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur rivojlanishi, boshlang'ich ta'lim, kognitiv qobiliyatlar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, ijodiy fikrlash, tangidiy tafakkur, pedagogik texnologiyalar, o'quv jarayoni, kognitiv faollik, didaktika, psixologiya, o'qituvchi roli, metodika, ta'lim islohotlari.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat ma'lumotlar to'plamini o'rgatish, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kompleks muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Boshlang'ich sinf – bu bolaning kognitiv qobiliyatlari va fikrlash ko'nikmalari shakllanishining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Shu sababli, aynan ushbu davrda tafakkurni kengaytirishga qaratilgan metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy metodlarini tadqiq etish hamda ularning samaradorligini aniqlashdir.

Boshlang'ich ta'lim - bu bolaning shaxsiy va kognitiv rivojlanishida hal qiluvchi davr bo'lib, kelajakdagi ta'lim muvaffaqiyatining poydevorini belgilaydi. Bugungi kunning tez o'zgaruvchan dunyosida ma'lumotlar hajmi ortib borayotgani, texnologiyalar rivojlangan sari,



maktabga yangi talablar qo'yilmoqda. Zamonaviy ta'lim nafaqat aniq bilimlarni egatishni, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, mantiqiy xulosa chiqarish, tangidiy tahlil qilish va murakkab vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. "Tafakkurni kengaytirish" tushunchasi shu jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat bilimni o'zlashtirish, balki uni amaliyotda qo'llash, turli vaziyatlarda adaptatsiya qila olish, yangi g'oyalar yaratish va mulohaza yuritish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim islohotlari doirasida ham "tafakkurli avlod"ni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Yangi o'quv dasturlari va davlat standartlarida kompetensiyaviy yondashuvga o'tish e'tirof etilmoqda, bu esa o'qituvchilardan an'anaviy "bilim beruvchi" rolidan "ko'nikma shakllantiruvchi" va "rafakor" roliga o'tishni talab qilmoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu jarayonda asosiy vazifani o'taydi, chunki 7-10 yoshdagi bolaning miyasi plastikligi yuqori bo'lib, yangi intellektual ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun eng qulay davr hisoblanadi.

Shu bilan birga, amaliyotda boshlang'ich sinflarda hali ham an'anaviy, eshitish va takrorlashga asoslangan metodlar ko'proq qo'llanilishi, o'quv jarayonining formal va natijaga yo'naltirilgan bo'lishi tafakkur rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida qolmoqda. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, u mavjud muammoni aniqlash va boshlang'ich sinf sharoitida o'quvchilarning turli tafakkur ko'nikmalarini (ijodiy, mantiqiy, tangidiy, algoritmik) yanada samarali rivojlantirishning ilmiy asoslangan va amaliyotga tatbiq etish mumkin bo'lgan usullarini taklif etadi. Tadqiqotning maqsadi - tafakkurni kengaytirishning nazariy modellarini o'rganish va ularni boshlang'ich sinf o'quv jarayoniga integratsiya qilishning optimal yo'llarini aniqlashdir.

Adabiyotlar tahlili

O'tmishda tafakkur rivojlanishi masalasi J. Piaje, L. Vygotskiy, J. Bruner kabi taniqli psixolog va pedagoglar tomonidan o'rganilgan. Hozirgi zamon tadqiqotlarida (R. Fisher, D. Perkins, M. Lipman) tafakkur ko'nikmalarini o'rgatishning aniq metodikasi ishlab chiqilgan. Tafakkurni kengaytirish deganda nafaqat mantiqiy fikrlash, balki ijodiy, tangidiy, algoritmik va kommunikativ fikrlash ko'nikmalarini integratsiyalash tushuniladi. O'zbekiston ta'lim kontekstida tafakkurli o'quvchilarni tarbiyalash milliy dasturlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Metodologiya

Tadqiqotda tahliliy, empirik va statistik metodlardan foydalanildi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari (n=25) va o'quvchilari (n=120) ishtirokida so'rovnoma va kuzatuvlar o'tkazildi. Nazariy jihatdan tafakkur rivojlanishi modellari tahlil qilindi. Amaliy qismda esa turli fanlarda qo'llaniladigan tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar va vazifalar sinovdan o'tkazildi.

Natijalar va muhokama



Tadqiqot natijalari quyidagi samarali usullarni aniqladi:

1. Savol-javob texnikasini takomillashtirish. “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar ... bo‘lsa, nima bo‘lardi?” kabi ochiq savollar tafakkur faolligini oshiradi. Masalan, matematik masalani turli usullarda yechishni taklif qilish.
2. Muammoli vaziyatlar yaratish. O‘quv materialini real hayotiy muammolar bilan bog‘lash. Tabiatshunoslik darslarida ekologik muammolar haqida muhokama qilish.
3. Interfaol metodlarni qo‘llash. “Aqliy hujum” (brainstorming), loyihalar, rolli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash. Bunda bolalar fikr almashish, fikrlash strategiyalarini o‘rganishadi.
4. Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Interaktiv dasturlar, ta‘lim platformalari va virtual laboratoriyalar tafakkur doirasini kengaytiradi.
5. Badiiy asarlar va vizual materiallar asosida muhokama. Tasvirlar, hikoyalar yordamida bolalarning tahmin qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini tahlil qilish qobiliyati o‘stiriladi. O‘tkazilgan eksperiment shuni ko‘rsatdiki, ushbu metodlarni muntazam qo‘llagan sinflarda o‘quvchilarning muammolarni hal qilish tezligi 40% ga, ijodiy yechimlar soni esa 60% ga oshdi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini kengaytirish – bu nafaqat pedagogik, balki psixologik jihatdan asoslangan murakkab jarayondir. Bunda an’anaviy va innovatsion metodlarni uyg‘unlashtirish, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi – bu faqat ma‘lumot yetkazuvchi emas, balki fikrlash jarayonini yo‘naltiruvchi moderator vazifasini o‘tashi kerak. Kelgusida ushbu sohada o‘quv dasturlariga tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi modullarni keng joriy etish, o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning nazariy tahlili va amaliy sinovlari shuni ko‘rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini kengaytirish - bu bir qator pedagogik, psixologik va metodik shartlarni talab qiluvchi tizimli va ataylab tashkil etilgan jarayondir. An'anaviy yondashuvlarni zamonaviy innovatsion metodlar bilan uyg'unlashtirish, bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan va ularning qiziquvchanligini uyg'otadigan o'quv muhtitini yaratish muvaffaqiyatning kalitidir.

Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. Tafakkur rivojlanishi - o'quv jarayonining markaziy maqsadi bo'lishi kerak. Bu faqat alohida mashg'ulotlar yoki vazifalar bilan chegaralab qo'yilmaydi, balki barcha fanlar



o'qitilishining asosiy tamoyiliga aylantirilishi lozim.

2. O'qituvchining roli tubdan o'zgaradi. U bilim manbai emas, balki fikrlash jarayonining moderator, rahbari va motivatori sifatida ishlashi kerak. Bu esa o'qituvchilarning o'zlarining tafakkur ko'nikmalari va ularni o'rgatish metodikasi bo'yicha doimiy malaka oshirishini talab qiladi.

3. Samarali metodlar diversifikatsiyasi. Tadqiqot natijalari savol-javob texnikasini takomillashtirish, muammoli ta'lim vaziyatlari, loyihalar, interfaol o'yinlar, raqamli vositalar va badiiy asoslangan muhokamalarni muvozanatli qo'llashning yuqori samarasini tasdiqladi.

4. Individual yondashuvning ahamiyati. Har bir bolaning kognitiv uslubi va fikrlash tezligi farqli. Shuning uchun tafakkurni rivojlantirish vazifalari differensiallangan bo'lishi, har bir o'quvchiga o'z salohiyatini ochish imkoniyatini berishi kerak.

Taklif va tavsiyalar:

· O'quv dasturlariga integratsiya: Boshlang'ich sinf o'quv dasturlariga alohida "Tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish" moduli yoki majburiy fan sifatida emas, balki barcha fanlar bo'yicha o'quv materiallariga uyg'unlashtirilgan holda kiritish maqsadga muvofiq.

1. Didaktik materiallar ishlab chiqish: O'qituvchilar uchun tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar to'plami, interaktiv dars ishlanmalari va elektron resurslar yaratish zarur.

2. O'qituvchilarni tayyorlash: Pedagogika oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish institutlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tafakkur o'qitish metodikasi" bo'yicha majburiy trening va kurslardan o'tkazish.

3. Ota-onalar bilan hamkorlik: Ota-onalarni tafakkur rivojlanishining ahamiyati va ularning bolalarga uyda qo'llashlari mumkin bo'lgan oddiy usullar (masalan, ochiq savollar, kuzatish o'yinlari, hikoya davom ettirish) bilan tanishtirish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda tafakkurni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlarini oshiradi, balki ularni hayotning har qanday sohasida muvaffaqiyatli, adaptatsiyalasha oladigan, izlanuvchan va ijodiy shaxslar bo'lishga tayyorlaydi. Bu – kelajak avlodning intellektual salohiyatini shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli investitsiyadir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Begimkulov U.Sh. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy- pedagogik asoslari. Ped. fan. doktori diss. – Toshkent: TDPU, 2007. – 250 b.

